

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI HARBIY KAFEDRASI

«Himoyaga ruxsat etilsin»  
TDPU harbiy kafedrasi boshlig‘i  
podpolkovnik \_\_\_\_\_ L.Davirov  
« \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2017 yil

5111500 – «CHAqiriqqacha harbiy ta‘lim» ta‘lim yo‘nalishi  
4- kurs 402 guruh talabasi

BERDIMURATOV Sherali Ismoilov g‘li

AKADEMIK LITSEY VA KOLLEJLARDA CAQIRIQQACHA  
HARBIY TAYORGARLIK FANINI O‘QITISHNING PEDAGOGIC  
ASOSLARI MAVZUSIDA YOZILGAN BITIRUV  
MALAKAVIY ISHI

\_\_\_\_\_ talaba Berdimurodov SH.I.  
Ilmiy rahbar: podpolkovnik  
\_\_\_\_\_ Xasanov M.S.

«Himoyaga tavsiya etilsin»  
\_\_\_\_\_ sikl boshlig‘i  
« \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2017 yil

Toshkent–2017 y.

“TASDIQLAYMAN”  
Harbiy kafedrası boshlig‘i  
podpolkovnik\_\_\_\_\_L.Davirov  
« \_\_\_\_ »\_\_\_\_\_2016 yil

“CHaqiriqqcha harbiy ta‘lim” ta‘lim yo‘nalishi 402- guruhi talabasi  
Berdimuratov Sherali Ismoil o‘g‘li tomonidan bajariladigan

### **BITIRUV MALAKAVIY ISH BO‘YICHA TOPSHIRIQ**

**Ishning mavzusi:** Akademik litsey va kollejlarda CHQBT fanini o‘qitishning pedagogic asoslari. universitet rektorining 2016 yil 30 sentyabrdagi T-391 – sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

**Ishni topshirish muddati:** 2017 yil 1 aprel.

#### **Mavzu bo‘yicha dastlabki ma‘lumotlar beruvchi adabiyotlar:**

1. Azizxo‘jaeva.N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maxorat. T.: 2003.
2. Begimkulov U. SH. Pedagogik ta‘limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2007 y.
3. Bespalko V.P. Slagaemye pedagogicheskoy texnologii. M.: Pedagogika 1989g.
4. Yo‘ldoshev J. G‘. YAngi pedagogik texnologiya: yo‘nalishlari, muammolari, echimlari. – Xalq ta‘limi jurnali, 1999, №4.
5. Klarin V.M. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsesse. M.: Znanie 1989g.
6. Maxkamov U., Tilabova N., Tilaboeva SH. Pedagogik maxorat. T.: 2003.
7. Monaxov V.M. Aksiomaticheskii podxod k proektirovaniyu ped. texnologii. Pedagogika. 1997g. №6.
8. Ochilov M. YAngi pedagogik texnologiyalar. Qarshi Nasaf, 2000.
9. Caidaxmedov N. YAngi pedagogik texnologiyalar. Toshkent “Moliya”- 2003.

10. [www.bilimdon](http://www.bilimdon.uz) uz. –O‘zbekiston respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining veb sayti.
11. [www.plekhanov.ru](http://www.plekhanov.ru).–Plexanov nomidagi Rossiya iqtisod akademiyasining veb sayti.

**Ishning maqsadi va vasifalari** "Chaqiriqqacha harbiy tayorgarlik" fani bo‘limlarini axborot texnologiyasini yaratish va shu asosida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish metodikasini ishlab chiqish va tajribada sinab ko‘rish.

**Ishni bajarish rejasi:**

№	Bosqichlar	Bajarish muddati	Ijrosi
1.	Bitiruv malakaviy ishning mundarijasini yaratish.	Sentyabr	
2.	Bitiruv malakaviy ish mavzusiga doir adabiyotlar tahlili.	Oktyabr	
3.	Bitiruv malakaviy ishning kirish qismini yaratish.	Noyabr	
4.	Bitiruv malakaviy ishning I-bobini yakunlash.	Dekabr	
5.	Bitiruv malakaviy ishning II-bobini materiallar yig‘ish.	Yanvar	
6.	Bitiruv malakaviy ishning II-bobini yakunlash va tajriba-sinov o‘tkazish.	Fevral	
7.	Bitiruv malakaviy ishini yakunlash va ichki ximoyaga taqdim qilish.	Mart	
8.	Bitiruv malakaviy ishini ximoyaga tayyorlash.	Aprel	

***Bitiruv malakaviy ish rahbari:*** podpolkovnik Xasanov M.S.

***Topshiriqni oldim:*** talaba Berdimuratov S.I.

\_\_\_\_\_10.09.2016 yil

(imzo)

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	4
<b>I-BOB. CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM YOSHLARNI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUHLARI SAFIDA XIZMAT QILISHGA TAYYORLASH TIZIMINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA</b> .....	8
1.1. CHaqiriqqacha harbiy ta'lim fanini, yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari safida xizmat qilishga tayyorlash tizimining tarkibiy qismi sifatidagi ahamiyati.....	8
1.2. CHaqiriqqacha harbiy ta'lim fanini rejalashtirish jarayonida e'tiborga olinishi lozim bo'lgan omillar.....	29
1.3. CHaqiriqqacha harbiy ta'lim bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazishning asosiy shakl va uslublari, ularning o'zaro aloqalari ta'minlash usullar.....	36
<b>II. BOB. MASHG'ULOTLARNI TASHKILLASH VA O'TKAZISHDA TA'LIMNING USLUBLARI VA VOSITALARINING AHAMIYATI</b> .....	
2.1. CHaqiriqqacha harbiy ta'lim mashg'ulotlarini tashkillash va o'tkazishga qo'yiladigan asosiy talablar.....	46
2.2. O'quv yurtlarida chaqiriqqacha harbiy ta'lim fanining o'quv-moddiy bazasi va moddiy-texnik ta'minotning mashg'ulotlar samaradorligiga ta'siri.....	53
<b>III. BOB. TADQIQOT SINOV NATIJALARI</b> .....	
3.1. Tajriba va nazorat guruhlarida CHQBT mashg'ulotlarida talabalarning o'zlashtirish va sifat me'yorlarini aniqlash yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqot natijalari va qiyosiy tahlillar.....	71
<b>XULOSALAR</b> .....	80
<b>ADABIYOTLAR RO'YXATI</b> .....	82
<b>ILOVALAR</b> .....	84

## KIRISH

CHaqiriqqacha harbiy ta'lim uslubiyoti talabalarni o'quv yurtlari uchun chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari lavozimiga tayyorlash bo'yicha maxsus fanlarning asosiysi bo'lib, talabalar tomonidan o'quv yurtlarida chaqiriqqacha harbiy ta'lim fanini tashkillash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar olish va ularni takomillashtirish maqsadida o'rganiladi.

CHaqiriqqacha harbiy ta'lim fani litsey va kasb-xunar kollejlarda O'zbekiston Respublikasining «Mudofaa to'g'risida»gi, «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonunlariga asosan tashkillanadi va olib boriladi va yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridagi harbiy xizmatga tayyorlash tizimining tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi.

CHaqiriqqacha harbiy ta'lim uslubiyotini o'rganish davomida talabalar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mamlakat mudofaasi va uni harbiy agressiyalardan himoya etish borasidagi qoidalarini o'zlashtiradilar.

O'zbekiston Respublikasining «Mudofaa to'g'risida», «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonunlarini, harbiy xizmatchilarning ma'muriy, intizomiy va jinoiy javobgarliklari to'g'risidagi qonunlarni, Qurolli Kuchlar turlarini, ularning vazifalarini o'rganadilar.

Bundan tashqari talabalar o'quv yurtlarida chaqiriqqacha harbiy ta'lim va harbiy-vatanparvarlikni tashkillash va o'tkazish uslubiyotini o'rganadilar. Ta'lim jarayonida ular o'quv yurtlarida chaqiriqqacha harbiy ta'lim dasturining har bir bo'limi bo'yicha mashg'ulotlarni tashkillash va o'tkazishning eng ilg'or va samarali uslublarini o'zlashtiradilar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va xukumati yoshlarni Qurolli Kuchlar safidagi harbiy xizmatga tayyorlash ishlariga doimiy ravishda <sup>1</sup>

katta e'tibor bermoqdalar. CHaqiriqqacha va chaqiriq yoshidagi o'smirlarni Qurolli Kuchlardagi haqiqiy harbiy xizmatga tayyorlash dasturida,

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” ва “Таълим тўғрисидаги” 1997 йил 29 августда тасдиқланган.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикасида олий ўқув юртлирига абитуриентларни тест усулида ўқишга қабул қилиш Вазирлар Маҳкамасининг 1992 йил 5 мартдаги қарорига биноан тасдиқланган.

yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorlash ishlari bilan bevosita shugʻullanuvchi barcha davlat idoralari, tashkilotlari va mansabdor shaxslar yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorlash ishlarini tubdan oʻzgartirish, uning sifatini oshirish choralarini koʻrishi, Qurolli Kuchlarni axloqiy-ruhiy va jismoniy jihatdan sogʻlom, Vatan himoyasini sharaf bilan bajarishga tayyor boʻlgan shaxsiy tarkib bilan taʼminlashlari kerak. Bu ishlarda xalqimizning jangovar anʼanalaridan, uning qadriyatlari va udumlaridan keng foydalanish lozim.

Bu maʼsuliyatli vazifalar butun jamiyat, eng avvalo oʻquv yurtlarining pedagogik jamoasi va birinchi navbatda chaqiriqqacha harbiy taʼlim rahbari zimmasidadir.

«CHaqiriqqacha harbiy taʼlim» yoʻnalishi boʻyicha taxsil olayotgan talabalar uchun chaqiriqqacha harbiy taʼlim uslubiyoti maxsus tayyorgarlikning asosiy fani boʻlib hisoblanadi. CHaqiriqqacha harbiy taʼlim uslubiyoti Davlat attestatsiyasiga qoʻyiladi. Maxsus tayyorgarlik boʻyicha uslubiy bilim va malakalarni talabalar 2 va 4 kurslardagi chaqiriqqacha harbiy taʼlim rahbari lavozimidagi amaliyot vaqtida oʻzlashtiradilar.

Talabalarni maxsus fanlar boʻyicha oʻqitishda asosiy eʼtibor harbiy-pedagogik tayyorgarlikka, ularga chaqiriqqacha harbiy taʼlim mashgʻulotlarini oʻtish boʻyicha amaliy malakalarni singdirishga qaratiladi. Bugungi kundagi vaziyat yoshlarning CHaqiriqqacha harbiy tayyorgarligi va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga alohida eʼtibor bilan yondoshishni talab qilmoqda. CHunki, mamlakatimizning ravnaqi, uning ertangi kungi havfsizligi, aynan bugungi yoshlar zimmasidadir.

SHunig uchun ham bu yoshlar toifasi bilan ishlovchi, ularning taʼlim va tarbiyasi bilan shugʻullanuvchi CHaqiriqqacha yoshlar tayyorgarligi rahbarlariga alohida talablar qoʻyiladi.

### **Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi.**

Hozirgi vaqtda o'quv yurtlarining CHQBT rahbarlari faoliyati bilan tanishib chiqilganda, aksariyat CHQBT rahbarlari, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha tadbirlarni tashkillash va o'tkazishda zarur bo'ladigan xujjatlar, ularni yuritish, mashg'ulotlarni rejalashtirish tartibi, hozirgi kunda mashg'ulotlarda foydalanish mumkin bo'lgan o'qitishning yangi shakl va uslublaridan samarali foydalanish yo'l-yo'riqlari, hamda an'anaviy ta'lim metodlarining zarur deb xisoblangan turlarini saqlab qolish va ularni yangi elementlar bilan boyitish masalalarida qiyinchilik va tushunmovchiliklarga duch kelayotganlari ma'lum bo'lmoqda. SHu kabi muammolarni yoritib berishga bo'lgan harakat, tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

### **Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti va predmeti.**

O'rta maxsus kasb hunar-kollejlari va akademik litseylar, hamda o'rta umumta'lim maktablarida talaba yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasining mafkuraviy va uslubiy-metodologik xususiyatlari.

### **Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifasi.**

CHQBT rahbarlari va o'qituvchilari uchun metodik yordam ko'rsata oladigan ma'lumotga ega bo'lish va o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini bevosita mashg'ulotlarda qo'llay olishni yo'lga qo'yishga ko'maklashish.

### **Bitiruv malakaviy ish tarkibining qisqacha tarkibi.**

Bitiruv malakaviy ishini kirish, asosiy qismda uchta bob, oltita paragraf, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan.

**I-BOB. CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM YOSHLARNI  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI SAFIDA  
XIZMAT QILISHGA TAYYORLASH TIZIMINING TARKIBIY  
QISMI SIFATIDA.**

**1.1. CHaqiriqqacha harbiy ta'lim fanini, yoshlarni O'zbekiston  
Respublikasi Qurolli kuchlari safida xizmat qilishga tayyorlash  
tizimining tarkibiy qismi sifatidagi ahamiyati**

O'zbek xalqining asriy orzusi ushlanib, mustaqillikni qo'lga kiritgan davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri-mustaqil O'zbekistonning mudofaasini mustaxkamlash va milliy havfsizligini ta'minlashga qaratildi.

Bugungi kunda fanning eng yaxshi ixtirolari harbiy sohada tez qo'llanilishi va taraqqiyotning yuksak darajada rivojlanganligi sharoitida, yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorlash ishlarining ahamiyati o'z-o'zidan oshib bormoqda. Xalqaro terrorizmning, separatchilik harakatlarining ko'p davlatlarda avj olishi, global urush xavfi bartaraf bo'lib lokal urushlarni paydo bo'lishi askarning ruhiy, jismoniy va maxsus tayyorgarligiga yangi talablarni qo'yimoqda. Undan turli xolatlarda o'zini munosib tuta olishni va tezlik bilan vaziyatni to'g'ri baholay olishni, hamda eng to'g'ri qarorni qabul qila olishni, o'z harakatlarini bo'linma harakatlari bilan moslashtira olishni talab qilmoqda. YAngi texnika vositalari jangovar harakatlar olib borish xususiyati va uslublarini tubdan o'zgartirmoqda. Bu xozirgi sharoitda jangovar mashinalarda, tanklarda, samolyot shturvallarida, zenit – raketa komplekslarda harbiy va maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan harbiy xizmatchilar bo'lishi kerak deganidir.

CHaqiriqqacha harbiy ta'lim fani bu vazifalarni ijobiy xal etishda, yoshlarni harbiy hizmatga tayyorlash tizimida o'z o'rniga egadir.

1962 yil chaqiriqqacha harbiy ta'lim fani o'quv yurtlarda bekor qilingan. 1967 yildan chaqiriqqacha harbiy ta'lim fani yangi qonun asosida yana o'qitila boshlangan.



YOshlarning chaqiriqqacha tayyorgarligiga umumiy rahbarlik va nazorat O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligiga va Mudofaa Vazirining harbiy ta’lim boshqarmasiga yuklatilgan. CHaqiriqqacha harbiy ta’limning nazorati O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining Birlashgan shtabi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, xalq ta’limi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasi, «Vatanparvar» tashkilotining Markaziy kengashi va boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralarning rejalari asosida olib boriladi.

CHaqiriqqacha harbiy ta’lim fani O‘zbekiston Respublikasining "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida» gi qonuniga binoan o‘rta mahsus kasb-xunar ta’limi muassasalarida o‘qitiladigan majburiy davlat fanidir. Ushbu chaqiriqqacha harbiy ta’lim fani bitiruvchi sinflar (kurslarda) o‘qitiladi. CHaqiriqqacha harbiy ta’lim dasturi uchun 140 soat ajratilgan. 2014 yili O‘zbekiston Respublikasida « Chaqiruvga qadar boshlang`ch tayorgarlikni tashkil etish» dagi Nizom qabul qilingan.

YOshlarni Qurolli Kuchlardagi harbiy xizmatga tayyorlash to‘g‘risidagi savollarning echilishi O‘zbekiston Konstitutsiyasida o‘z echimini topgan.<sup>2</sup>Asosiy qonunning 52-moddasida Vatan himoyasi har bir O‘zbekiston fuqarosining konstitutsiyaviy burchi ekanligi ta’kidlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi tomonidan qabul qilingan «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi qonuni umumiy harbiy majburiyatning mohiyatini ochib beradi, yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, haqiqiy harbiy xizmatga chaqirish tartibini va uni o‘tash tartibini, Qurolli Kuchlarni to‘ldirish tamoyillarini va armiya uchun rezervlar tayyorlash tartibini aniqlab beradi.

O‘zbekiston Respublikasining «Mudofaa to‘g‘risida»gi qonuni esa mudofaani tashkil etishni va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini boshqarishning xuquqiy asoslarini belgilaydi. SHuningdek, mamlakat

---

<sup>2</sup> Чақирикка қадар бошланғич тайёргарлик фани дастури.

mudofaasini tashkillashda davlat organlarining, fuqarolarining o'zini-o'zi boshqarish organlari, korxonalar, tashkilotlar va fuqarolar ishtirokini aniqlab beradi.

CHaqiriqqacha harbiy ta'lim bo'yicha mashg'ulotlar xaftasiga **2-soatdan, 2-3 kurslarda o'tiladi.**

CHaqiriqqacha harbiy ta'lim kursi bo'yicha olingan bilim, ko'nikma va malakalarni mustaxkamlash uchun yakuniy bosqichda mudofaa sport sog'lomlashtirish lagerlarida 3-kunlik o'quv-dala mashg'ulotlari o'tkaziladi.

O'quv-tarbiyaviy jarayonda o'quvchilarga O'zbekiston Qurolli Kuchlariga nisbatan muhabbat singdiriladi. Ularda mustaqil vatan fuqarosi ekanligi bilan faxrlanish, uning himoyasiga doimo shay turish kabi sifatlar shakllantiriladi.

**O'quv yurti direktori va CHHT rahbari o'quvchi yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlaridagi harbiy xizmatga tayyorlash bo'yicha o'quv tarbiyaviy jarayonning tashkilotchilari.**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Vatanni himoya qilish davlatning eng muxim vazifalaridan biri ekanligi va shu maqsadda Qurolli Kuchlar tuzilganligi va «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonun asosida O'zbekiston fuqarolarini davlat mudofaasi bo'yicha majburiyatlari aytib o'tilgan. Unda Vatanni himoya qilish har bir O'zbekiston fuqarosining qonuniy burchi ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Konstitutsiyaning ushbu qoidalari va talablaridan kelib chiqqan xolda, bugungi kunda o'rta maxsus o'quv yurtlarida yosh avlodni Vatan himoyasiga tayyorlash eng muxim vazifalardan hisoblanadi. SHu maqsad yo'lida, O'zbekiston Respublikasi «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida» gi qonuni asosida o'rta maxsus o'quv yurtlari dasturiga kiritilgan chaqiriqqacha harbiy ta'lim fani xizmat qilishi kerak.

CHaqiriqqacha harbiy ta'lim o'quv predmeti sifatida o'quvchilarni, ya'ni bo'lajak chaqiriluvchilarni yosh askar kursi xajmidagi

bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishga, ularning harbiy – vatanparvarlik tarbiyasini maqsadga yo'naltirilgan xolda olib borishga, o'quvchi yoshlarda yuksak siyosiy ongini, Vatan himoyasi muqaddas ekanligini ongli ravishda tushunishni, e'tiqodli, matonatli va jasur Vatan himoyachilarini tarbiyalashga imkon yaratadi.

Bu vazifalarni bajarish o'quv yurtlari, ayniqsa u erda faoliyat yuritayotgan chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbarlari zimmasidadir. CHunki ular «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida» gi qonuni asosida o'quvchi yoshlarni chaqiriqqacha harbiy ta'lim va harbiy - vatanparvarlik tarbiyasini maqsadga yo'naltirilgan xolda olib boradilar. SHu bilan birga o'quv yurtlarining pedagogik jamoalari o'quvchi yoshlarni chaqiriqqacha harbiy ta'lim, HVT va jismoniy tarbiyasining sifati va samaradorligini doimo oshirishga harakat qilishlari kerak.

O'quv yurtlarida chaqiriqqacha harbiy ta'lim fanining sifati, uning tarbiyaviy ahamiyati chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbarining harbiy va pedagogik bilimlari darajasiga, uning mafkuraviy siyosiy etukligiga, uslubiy maxoratiga, shuningdek, o'quv yurti direktori va pedagogik jamoaning bu yo'nalishdagi faolligiga to'g'ridan- to'g'ri bog'liqdir. Ma'lumki, chaqiriqqacha harbiy ta'lim fanini tashkillash va o'tkazishda chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari markaziy (asosiy) shaxs bo'lib hisoblanadi. U bevosita o'quv yurti direktoriga bo'ysunadi, uning majburiyatlari esa chaqiriqqacha harbiy ta'limning me'yoriy xujjatlarida belgilab qo'yilgan.

O'quvchi - yoshlarni vatan himoyasiga tayyorlashda rahbarlik roli o'quv yurti direktoriga tegishlidir. U o'quv yurtida chaqiriqqacha harbiy ta'lim va HVT ni yuksak darajada tashkillanishi va uning ta'minlanishiga javob beradi. Bu vazifani echish uchun u me'yoriy xujjatlarni, qoida va talablarni, ayniqsa chaqiriqqacha harbiy ta'lim mashg'ulotlari uslubiyotini yaxshi bilishi kerak.

CHaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari lavozimiga nomzodlar tanlash ham o'quv yurti direktori majburiyatlari doirasiga kiradi. Amaldagi nizomlarga

ko'ra, bu lavozimga nomzodlarni rayonlar, shaharlar, mudofaa ishlari bo'limlari tavsiya etadi.

CHaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari o'quv yurtining o'quv moddiy texnik bazasini yaratish va takomillashtirish va sinfdan tashqari harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha tadbirlarni tashkillash va o'tkazishda faol ishtirok etishi kerak. O'quv yurti direktori chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbarini uning majburiyatlari doirasiga kirmagan ma'muriy xo'jalik ishlariga jalb etmasligi kerak. CHaqiriqqacha harbiy ta'lim va harbiy vatanparvarlik tarbiyasini murakkab vazifalarini muvaffaqiyatli ravishda echish ko'p jixatdan chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbarini kasbiy va uslubiy maxoratiga bog'liqdir. SHunday ekan, uni o'z mafkuraviy, nazariy va harbiy bilimlarini, pedagogik maxoratini oshirish bo'yicha doimiy faoliyatiga sharoit yaratib berish, unga o'quv - uslubiy yordam ko'rsatish, o'quv yurti direktorining asosiy vazifalaridan bo'lib hisoblanadi.

SHuni esda tutish kerakki, chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari malakasini oshirishning eng asosiy uslubi bu, mustaqil ravishda siyosiy, pedagogik va harbiy adabiyotlarni shuningdek, ta'lim va tarbiyaning eng ilg'or tajribalarini chuqur o'rganishdir. Buning uchun unga xaftada uslubiy kun beriladi. Mustaqil ta'lim, odatda chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbarining yillik ish rejasida ko'rsatib o'tiladi.

CHaqiriqqacha harbiy ta'lim bo'yicha o'quv jarayonini rejalashtirish va tashkillash chaqiriqqacha harbiy ta'lim dasturi talablariga muvofiq amalga oshiriladi va uni to'liq va sifatli bajarilishini ta'minlashi kerak.

O'quv yurti direktori quyidagilarni belgilaydi:

- CHaqiriqqacha harbiy ta'lim bo'yicha o'quv jarayonini boshlanishi va uning yakunini;
- O'quvchilarni avtomatdan jangovar patronlar bilan o'q otishga tayyorgarligi va HVT bo'yicha tadbirlarni o'tkazish muddatlari;

- CHaqiriqqacha harbiy ta'lim bo'yicha o'quv jarayonini boshlanishiga bag'ishlangan buyruq mazmunini;

- CHaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbariga me'yoriy va rejalashtiruv xujjatlarini ishlab chiqishga ko'rsatmalar beradi.

CHaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari direktor rahbarligi ostida chaqiriqqacha harbiy ta'limdan xaftalar bo'yicha mashg'ulotlar o'tish rejasini, o'quv jarayonini boshlanishi, guruh va seksiyalarning komandirlarini tayinlash bo'yicha buyruq loyihalarini, shuningdek,

<sup>3</sup>chaqiriqqacha harbiy ta'lim fani bo'yicha sinfdan tashqari va harbiy

vatanparvarlik tarbiyasi ishlarini tashkillash va o'quv-moddiy texnik bazasini yaratish va takomillashtirish bo'yicha takliflarni tayyorlaydi.

Xaftalar bo'yicha mashg'ulotlar o'tish rejasi har bir sinf, guruh uchun alohida bir o'quv yiliga tuziladi. U shakli va bo'limlarni o'tish tartibi bilan chaqiriqqacha harbiy ta'lim dasturi talablariga muvofiq bo'lishi kerak. SHu bilan birga har oyga mashg'ulotlar jadvalini tuzish, unda mashg'ulotlar mazmunini keng yoritib berish, ularni o'tkazish vaqti va joyini, shuningdek chaqiriqqacha harbiy ta'lim fani bo'yicha sinfdan tashqari ishlar va tadbirlar ko'rsatilishi tavsiya etiladi.

Direktor buyrug'ida pedagogik jamoa, chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari, jismoniy tarbiya va tibbiy - sanitar tayyorgarligi o'qituvchilarning o'quvchi yoshlarni ta'lim va tarbiyasi bo'yicha vazifalari ko'rsatib o'tiladi, o'quvchilar uchun tartib qoidalari, chaqiriqqacha harbiy ta'lim fani bo'yicha uslubiy kengash a'zolari tarkibi va ularni ish tartibi, chaqiriqqacha harbiy ta'lim fani va harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha asosiy tadbirlarni o'tkazish muddatlari belgilanadi.

O'quv yurtining yillik ish rejasiga harbiy vatanparvarlik tarbiyasi tadbirlari, chaqiriqqacha harbiy ta'lim fani o'quv – moddiy texnika bazasini

---

<sup>3</sup> А.Ақбаров, Ш.Тилаволдиев. “Чақирикқа қадар бошланғич тайёргарлик ва ҳарбий ватанпарварлик тарбияси”дан услубий тавсия. “Фарғона.” 2005 йил.

takomillashtirish bo'yicha takliflarni belgilashda, chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari bu ishlarda pedagogik jamoa, Vatanparvar tashkiloti va boshqa xomiy tashkilotlar va idoralar ishtirokini ham unutmasligi kerak.

O'quv yurti direktorini guruh va seksiya komandirlarini tayinlash to'g'risidagi buyrug'ida guruh raqamlari va ularni komandirlari ko'rsatib o'tiladi, o'quvchilar tomonidan harbiy muomala va o'rnatilgan kiyim-bosh qoidalariga rioya etish majburiy ekanligi ta'kidlab o'tiladi. Bundan tashqari buyruqda, guruh va seksiya komandirlarini harbiy intizomni saqlash va o'quv moddiy texnik bazani takomillashtirish bo'yicha vazifalar ko'rsatiladi.

O'quv yurti direktorini mashg'ulotlarni tashkillash va o'tkazishdagi roli kattadir. Ma'lumki u mashg'ulot rejasini tasdiqlashi kerak. SHuni ta'kidlab o'tish kerakki, aksariyat direktorlar mashg'ulotlarni tashkillashda chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbariga yaqindan yordam beradilar. Lekin, shu bilan birga shunday direktorlar ham borki, ular chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbariga uslubiy yordam berish u yoqda tursin, xattoki mashg'ulot qanday o'tkazilayotganligi bilan ham qiziqishmaydi. Bu esa o'z navbatida direktorni o'z majburiyatlarini bajarmaslikka olib keladi. O'quv yurtlarida bunday xolat aslo bo'lishi mumkin emas.

Direktor va chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari rejada quyidagilar ko'rsatilishini esda tutishlari kerak:

- har bir guruh bilan dasturning qaysi bo'limlari bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazilishi;
- mavzuning nomlanishi, mashg'ulotni tartib raqami va mazmuni;
- o'quv va tarbiyaviy maqsadlar, mashg'ulotga ajratilgan vaqt;
- mashg'ulotni o'tkazish uslubi va joyi;
- foydalaniladigan adabiyot va qo'llanmalar;
- mashg'ulot rahbari va o'quvchilar harakati;
- mustaqil tayyorgarlik uchun vazifalar;

Mashg'ulot rejasini o'quv yurti direktori yaqindan tanishib chiqishi va kerakli uslubiy yordam ko'rsatishi uchun unga mashg'ulot o'tkazilishidan 7 kun avval taqdim etish kerak.

O'quv yurti direktori va chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari o'q otish mashqlarini o'tkazishga alohida e'tibor berishlari kerak. Masalan, kichik kalibrli vintovkalardan boshlang'ich mashqni bajarishga chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbarining bahosiga ko'ra, bunga tayyor bo'lgan o'quvchilar qo'yiladi. Qolgan o'quvchilar esa, mashqni bajarishga tayyor bo'lganlaridan so'ng darsdan tashqari vaqtda uni bajaradilar.

O'quv dala mashg'ulotlarini tashkillash va o'tkazish ham direktor va chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari tomonidan alohida diqqat va e'tibor ko'rsatilishini talab qiladi. Bu mashg'ulotlarni Mudofaa sport sog'lomlashtirish oromgohida o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Xokimiyat va xalq ta'limi bo'limlari qaroriga asosan, o'quv dala mashg'ulotlariga tayyorgarlik va uni o'tkazish bo'yicha tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi, va u direktor tomonidan tasdiqlanadi. Agar dala mashg'ulotlari harbiy qismda o'tkazilsa, u xolda reja uning komandiri bilan kelishilgan xolda ishlab chiqiladi.

Reja o'quv yurti direktori, uning o'rinbosarlari, chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari, jismoniy tarbiya o'qituvchilari va ishlab chiqarish ustalari bajarishi kerak bo'lgan aniq vazifalarni o'z ichiga oladi va unda ularni bajarilish muddatlari belgilanadi. O'quv dala mashg'ulotlariga harbiy qismlardan harbiy xizmatchilarni jalb etish, rahbarlarni zaxiradagi o'qituvchi ofitserlar tarkibidan tayinlash, ular bilan uslubiy mashg'ulotlar o'tkazish kabi masalalar mudofaa ishlari bo'limlari bilan birgalikda amalga oshiriladi.

O'quv dala mashg'ulotlarini o'tkazish xaqidagi buyruq, uni boshlanishidan bir oy avval chiqariladi va unda yig'inni o'tkazilish vaqti, tantanali saflanish, o'quvchilar, guruh va seksiya komandalarining

familiyalari, o'quvchilarni yig'in joyiga olib borish va mashg'ulotlar o'tish tartibi, shuningdek, xavfsizlik qoidalari ko'rsatib o'tiladi.

O'quv dala yig'inidagi mashg'ulotlar jadvali Mudofaa sport sog'lomlashtirish oromgohi boshlig'i tomonidan tasdiqlangan o'quv ob'ektlaridan foydalanish grafigiga asosan tuziladi.

Kun tartibi ertalabki jismoniy mashq, o'quv mashg'ulotlarini, mustaqil tayyorgarlik, tarbiyaviy va ommaviy sport ishlari, qurol tozalash, asbob-anjomlarni jixozlash, ovqatlanish, shaxsiy vaqt, kechki sayr va yo'qlama uchun vaqtlarni o'z ichiga olishi kerak.

O'quv-moddiy texnik bazasini yaratish va uni takomillashtirish o'quv yurti direktori va chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbarining alohida diqqatiga sazovor bo'lgan masaladir. Chunki, uning xolati chaqiriqqacha harbiy ta'lim mashg'ulotlari samaradorligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

O'quv yurtlarida o'quv-moddiy texnik baza xolatini tekshirish jarayonida shu narsa ma'lum bo'lyaptiki, barcha o'quv-yurtlarida ham o'quv-moddiy texnik bazasidan talab darajasida foydalanilmaydi. Masalan, ba'zi o'quv yurtlarida o'quv moddiy texnik bazani barcha elementlari yaratilgan, lekin ular mashg'ulotlar davomida foydalanilmaydi. Bu o'quv moddiy texnik bazani faqat tekshiruvchilar uchun ekanligidan dalolat beradi. Ayrim o'quv yurtlarida esa jixozlangan o'quv joylari umuman yo'q, xatto amaliy mashg'ulotlar ham chaqiriqqacha harbiy ta'lim xonasida o'tiladi. O'quv moddiy texnik bazaga bunday yondoshish o'z navbatida chaqiriqqacha harbiy ta'lim mashg'ulotlari samaradorligini keskin pasayishiga olib keladi. O'quv yurtlari direktorlari bunday xolatga yo'l qo'ymasliklari kerak va o'quv moddiy texnik bazani yaratilishi va undan talab asosida foydalanilishini o'z nazoratlari ostiga olishlari lozim.

Bo'lajak jangchilarini yuksak darajada tayyorlanishini ta'minlash uchun chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari jismoniy tarbiya o'qituvchilari va darsdan tashqari vaqtda harbiy - vatanparvarlik va ommaviy sport ishlarini olib



boruvchi shaxslarni tashkiliy va uslubiy harakat va kuchlarini birlashtirishi zarur. Buning uchun o'quv yurtida chaqiriqqacha harbiy ta'lim, jismoniy tarbiya va tibbiy sanitar tayyorgarlik bo'yicha uslubiy kengash tuziladi va unga direktor rahbarlik qiladi.

Uslubiy kengash tarkibiga yuqorida aytib o'tilgan shaxslardan tashqari, direktorning o'quv tarbiyaviy ishlari bo'yicha o'rinbosari, o'quv yurtining «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati va «Vatanparvarlik» tashkilotlarini raislari kiradi.

Uslubiy kengash raisi bo'lib, odatda chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari tayinlanadi.

U uslubiy kengashni yillik ish rejasini ishlab chiqadi, o'quv yurtining boshqa uslubiy kengashlari bilan hamkorlik qiladi, kengash a'zolari bilan mashg'ulotlar, ochiq va ko'rgazmali darslar tashkillaydi.. Dolzarb muammolar bo'yicha muxokamalar, majlislar o'tkazish, qabul qilingan qaror va tavsiyalarni kengash a'zolari tomonidan bajarilishini nazorat qiladi va komissiya ishi bo'yicha pedagogik kengash oldida xisobot beradi.

Uslubiy komissiya a'zolari qabul qilingan qaror va tavsiyalar ijrosini ta'minlaydilar, ochiq va ko'rgazmali darslar o'tkaziladi, komissiya kengashi pedagogik konferensiyalarda dokladlar qiladilar, yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash ishlarini samarasini oshirish bo'yicha takliflar kiritadilar.

Uslubiy komissiya har ikki oyda tadbirlar o'tkazib turadi. Bu tadbirlarni o'tkazish vaqti direktor buyrug'i bilan belgilanadi.

Uslubiy komissiya ishining natijasi bo'lajak askarlarning ta'lim va tarbiyasining qanday darajada ekanligiga qarab belgilanadi.

Uslubiy komissiyani xujjatlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- direktor tomonidan tasdiqlangan chaqiriqqacha harbiy ta'lim, jismoniy tarbiya va tibbiy sanitar tayyorgarlik bo'yicha ish rejalari;

- dars rejalari, uslubiy qo'llanmalar, dokladlar, uslubiy komissiya qaror va tavsiyalari, xisobot xujjatlari;

O'quv yurti direktori harbiy vatanparvarlik tarbiyasini tarkibiy qismi bo'lgan chaqiriqqacha harbiy ta'lim fani bo'yicha sinfdan tashqari ishlarni takomillashtirish to'g'risida doimo g'amxo'rlik qilishi kerak.

O'quv yurtida harbiy vatanparvarlik tarbiyasini olib borish bo'yicha majburiyatlar quyidagicha taqsimlanishi mumkin:

O'quv yurti direktori pedagogik jamoa va jamoa tashkilotlari faoliyatini boshqaradi, ularning harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha ishlariga rahbarlik qiladi, asosiy tadbirlarni rejalashtiradi, ularning bajarilishini tashkillaydi va nazorat qiladi;

Ushbu ishlar bo'yicha masalalarni pedagogik kengash yig'ilishiga qo'yadi.

Direktorning o'quv va tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari:

Sinf rahbarlari ishlarini tashkillaydi va nazorat qiladi, ularga o'quvchilar bilan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi ishlarini tashkillashda uslubiy yordam ko'rsatadi;

Bu ishlar bo'yicha yoshlar tashkilotlariga yordam beradi va chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari bilan doimiy hamkorlikda bo'ladi. CHaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari direktorning o'quv tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari bilan birgalikda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tadbirlarini rejalashtiradi;

- guruh murabbiyi va jamoatchilik tashkilotlari boshliqlariga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatadi. Ommaviy mudofaa to'garaklari ishlariga rahbarlik qiladi;

- harbiy vatanparvarlik tarbiyasi tadbirlariga xomiy tashkilotlarni jalb qilishni yo'lga qo'yadi;

- 1-2 Ommaviy mudofaa to'garaklarida mashg'ulotlar olib boradi.

Guruh murabbiyi o'z guruhida talabalarining harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha ishlarni olib boradi va chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbariga bu ishlarni rejalashtirish va o'tkazishga yordam beradi.

Fan o'qituvchisi o'z fani bo'yicha o'quv materiallaridan o'quvchilarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasi maqsadida foydalanadi va nazariy konferensiyalar, uchrashuvlar o'tkazadi. Unga bu ishlarda chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari va uslubiy komissiya yordam beradi.

CHaqiriqqacha harbiy ta'lim bo'yicha sinfdan tashqari ishlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- guruh va seksiya komandirlari bilan mashg'ulotlar o'tkazish;
- chaqiriqqacha harbiy ta'lim fani bo'yicha guruh va yakka tartibdagi maslaxatlar;
- "Alpomish" va "Barchinoy" maxsus test sinovlarini topshirish;
- 4- o'quvchilarni «SHunqorlar» harbiy – sport o'yinlariga tayyorlash, komandalar va komandirlar bilan mashg'ulotlar o'tkazish;
- sportning harbiy-amaliy turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazish;
- harbiy qismlarga ekskursiyalar uyushtirish;

CHaqiriqqacha harbiy ta'lim fani bo'yicha me'yoriy xujjatlar talablariga muvofiq direktor chaqiriqqacha harbiy ta'lim fani bo'yicha mashg'ulotlar o'tishini va o'quvchilar tomonidan o'quv materiallarini o'zlashtirilishini nazorat qiladi, shuningdek, o'quv quroli, kichik kalibrli vintovkalar va o'q-dorilarni saqlanishini, texnik xolatini va xisobotini tekshiradi.

O'quv mashg'ulotlarini direktor tomonidan tekshirilishi, chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbariga uslubiy yordam ko'rsatish bilan birgalikda olib borilishi kerak. Mashg'ulotlarni tekshirishni shunday rejalashtirish kerakki, bunda yil davomida dasturning har bir bo'limi bo'yicha mashg'ulotlar tekshirilishi lozim. Tekshiruv davomida o'quv va tarbiyaviy maqsadlarni, o'qitish uslublarini, ularni mavkuraviy va tarbiyaviy ahamiyatini, moddiy ta'minotini, vaqtni taqsimlanishini, o'quv materialini to'liq yoritilishini, uni boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasini, dastur talablariga muvofiqligiga, amaliy

---

<sup>4</sup> И.Й Турсунов, У.Н Нишоналиев. "Педагогика курси." "Тошкент." 1997 йил.

mashq va uslublar namoyishiga, o'quvchilar tomonidan harbiy nizom va intizom talablari qanday bajarilayotganligiga e'tibor qaratish kerak.

O'quvchilar tomonidan o'quv materiallari qanday o'zlashtirilganligini qay tarzda tekshirish mumkin?

Direktor (yoki chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari uning topshirig'i bilan) o'quvchilarga savollar beradi yoki biror amaliy harakatni bajarishni so'raydi. Bunda berilgan javob va bajarilgan harakat yoki usul baholanadi. SHuningdek, direktor tomonidan o'quvchilarni harbiy kiyim-bosh qoidalari, harbiy intizom talablari va navbatchi (posbon) majburiyatlarini qanday bajarayotganliklarini kundalik tarzda kuzatib borish ham katta ahamiyatga egadir. Tekshiruv natijalari, xulosa va takliflar direktor tomonidan o'z ish daftarida yoki gazorat jurnallarida qayd etilib boriladi.

CHAqiriqqacha harbiy ta'lim bo'yicha o'quv tarbiyaviy ishlarning yillik yakuni aprel-may oylarida chiqariladi. O'quv yurti pedagogik kengashi yig'ilishiga doklad tayyorlanadi. Unda chaqiriqqacha harbiy ta'lim va jismoniy tarbiya fanlarining o'qitilish sifati, o'quvchilar dastur materiallarini qanday o'zlashtirganliklari, ularni «Alpomish va Barchinoy» maxsus test sinovlarini topshirish bo'yicha tayyorgarlik darajalari taxlil qilinadi. Dokladda o'quv-moddiy baza xolati, o'quvchilarning intizomi va uyushqoqlik darajasi, uslubiy komissiya ishining samaradorligi baholanadi. SHunigdek, darslar, dars va sinfdan tashqari vaqtlarda harbiy vatanparvarlik tarbiyasi tadbirlari qanday amalga oshirilganligi ta'kidlab o'tiladi. Doklad direktor, chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari va jismoniy tarbiya o'qituvchilari tomonidan tayyorlanadi. Pedagogik kengash materiallari chaqiriqqacha harbiy ta'lim bo'yicha ta'lim yakuni to'g'risidagi direktor buyrug'i asosini tashkil etadi, unda dasturning bajarilishiga baho beriladi, xulosalar chiqariladi, yangi o'quv yili uchun pedagogik jamoa va o'quvchilarga aniq vazifalar qo'yiladi.

Harbiy-sport bayramlari o'quv yilini yakunlashni va harbiy bilimlarni tashviqot qilishni muxim shakli bo'lib hisoblanadi. Unda o'quvchilar

chaqiriqqacha harbiy ta'lim mashg'ulotlarida olgan bilim, ko'nikma va malakalarini namoyish etib, o'zlarini jismoniy jixatdan qay darajada tayyor ekanliklarini ko'rsatadilar. Harbiy – sport bayramlarini tayyorlash va o'tkazish to'g'risidagi buyruq uni boshlanishidan 2-3 oy avval direktor tomonidan chiqariladi va bayram rejasi tasdiqlanadi.

O'quv yili yakunlangandan so'ng, direktor tuman (shahar) mudofaa ishlari va xalq ta'lim bo'limlariga o'quvchilarning chaqiriqqacha harbiy ta'lim va HVT si xolati to'g'risida xisobot beradi.

Xisobotda shartli ravishda dasturning bajarilganligi, direktor tomonidan o'rganilgan ma'lumotlar, ulardan chiqarilgan xulosalar, chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'quv - moddiy texnika bazasini xolati ko'rsatib o'tiladi.

CHHT rahbari chaqiriqqacha yoshlarni axloqiy - siyosiy va ruhiy sifatlarini, ularni intizomlilik va bajaruvchanligini o'rganish va shakllantirish bo'yicha guruh va darsdan tashqari ishlari. CHHT rahbari lavozimini qabul qilish tartibi.

YOshlarni harbiy xizmatga tayyorlash ishlarining samaradorligi ko'p jixatdan chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari tomonidan o'smirlarni yosh xususiyatlarini xisobga olishga, ya'ni pedagogik faoliyat ob'ektining o'ziga xos tomonlari xaqidagi bilimlariga bog'liqdir.

CHaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbarini pedagogik ta'sir ob'ekti, bu-Qurolli Kuchlar safini to'ldirishga tayyorlanayotgan yoshlardir.

CHaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbarining pedagogik faoliyati natijalari bo'lajak jangchilarning ruhiy qiyofasiga albatta o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Pedagogik ob'ektning o'ziga xos xususiyati shundaki, u bir vaqtni o'zida o'quv, mexnat va jamoat faoliyati sub'ekti bo'lib hisoblanadi, u o'z maqsadiga, unga erishish vositalariga va ularni amalga oshirish imkoniyatlariga egadir. Pedagogik ta'sir ob'ektini, uning ruhiyatini rivojlanish qonuniyatlarini har tomonlama bilish, chaqiriqqacha harbiy ta'lim

rahbariga o‘smirlarni ichki ma’naviy dunyosiga chuqur kirib borishiga, ta’lim va tarbiya ishlarini yanada samarali olib borishga imkon beradi.

CHaqiriqqacha yoshlar harbiy xizmatga tayyorlashning ob’ekti va sub’ekti sifatida uch tomonlama, ya’ni ijtimoiy, ruhiy va biologik jixatlardan tafsivlanishi mumkin.

SHuni nazarda tutish kerakki, bu erda so‘z insonni dunyo qarashi, axloqiy g‘oyalarni shakllanayotgan, o‘smir o‘zi va boshqalarni yaxshi tushuna boshlagan, hayotda o‘z o‘rnini topishga va kelajakka intilib yashayotgan davr yoshi xaqida ketmoqda. Bu vaqtda shaxsning ruhiy xolatida qarama - qarshiliklar bo‘lib, uning yurish - turishi hamma vaqt ham tartibli ravishda bo‘lmaydi. Bunday xolatlarda o‘smir jasorat ham, intizomlilik namunasini ham ko‘rsatishi, shu bilan birga oddiy yurish - turish qoidalarini buzishi ham mumkin.

Harbiy xizmatga chaqiriq yoshida o‘smirning markaziy nerv sistemasi shakllanib bo‘ladi va gavdaning barcha organlarini, shuningdek, organizmning tashqi muxit bilan tez va aniq o‘zaro xamkorligini, bosh miyada murakkab sharoitlarda reflekslarni xosil bo‘lishini ta’minlab beradi. SHunday bo‘lsada, organizmdagi bioximik va fizik jarayonlarni tezligi, shuningdek, hayotiy tajribaning etarli emasligi sababli, organizmda qo‘zg‘alish jarayoni tormozlanish jarayonlaridan ustun turadi.

Pavlov shunday degan edi:

YOshlarni tarbiyalash-bu eng avvalo ularda tormozlanish jarayonlarini shakllantirishdir. CHunki bu yoshdagi insonlarning aqliy faoliyatini muxim jarayonlari juda yaxshi rivojlangan. Bu yoshda xotira juda katta imkoniyatlarga ega bo‘ladi, tasavvur esa obrazlarni xilma - xilligi va boyligi bilan ajralib turadi. Fikrlashda voqealarni taxlil qilish,<sup>5</sup>

ularni qimslarga ajratish ustun bo‘ladi. Nutq o‘zining ifodaliligi, emotsionalligi, shuningdek, fikrlarni tartibli va aniq bayon qilishga intilishi

---

<sup>5</sup> ЧҚБТ дастури, “Харбий иш асослари” бўлими 2-мавзу, 2-машғулот

bilan tafsivlanadi. Aqliy faoliyat asosida maxsus qobiliyatlar tez rivojlanib boradi.

Lekin bu yoshda shunday o'smirlar ham uchraydiki, ularning dunyoqarashi allaqachon shakllanib bo'ladi. Ularda hayotiy tajribani etarli emasligi, sababli jamiyat hayotidagi xolatlar xaqidagi tasavvurlar yuzaki, ba'zan xato ham bo'ladi. Bunday xolat chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari va o'quv yurtining butun pedagogik jamoasidan o'smirlarning dunyo, jamiyat rivojlanishi qonuniyatlari va ularning dunyo qarashini bir tizimga solish, ularni siyosiy va tabiiy - ilmiy bilimlar bilan qurollantirishga, ularni to'g'ri yo'nalishga boshlashga katta e'tibor berishlarini talab qiladi. CHunki, voyaga etish davrida olingan bilimlar o'zlashtirilgan ko'nikma va malakalar ko'pchilik insonlarda bir umrga saqlanib qoladi. O'smirlarni muxim xususiyatlari-bu ularni o'z shaxsiga, o'zining fikrlari, xissiyotlari, o'ylariga kuchli qiziqishdir. Bu o'z-o'zini aniglashni to'la rivojlanganligidan dalolat beradi. O'z faoliyati va xususiyatlarini baholash asosida o'smirlarda o'z-o'zini tarbiyalashga extiyoj paydo bo'ladi.

CHaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari o'smirlarni bunday harakatlarini o'z vaqtida qo'llashi va uni bo'lajak jangchini harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog'lab olib borishi kerak.

YAna shuni aytib o'tish kerakki, bu yoshda aksariyat o'smirlar kattalar bilan muloqotda samimiy va to'g'riso'z bo'ladilar. Ular o'z ishini puxta bilgan, irodali, g'amxo'r chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbarlarini xurmat qiladilar, ularni ko'rsatmalarini, maslaxatlarini olishga xarakat qiladilar.

O'smirlar 17-18 yoshga kirganda ularning jismoniy rivojlanishi eng yuqori cho'qqiga chiqqan bo'ladi. Bu ularga katta jismoniy yuklarni ko'tarishga, jangovar texnika va qurollarni o'rganish bo'yicha murakkab xarakatlarni, ko'nikma va malakalarni tez o'zlashtirishga imkon beradi.

O'smirlik yoshida organizm jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga extiyoj sezadi. Lekin shunday o'smirlar ham borki, ularda

sport bilan shug'ullanishga umuman istak yo'q. Aksariyat xollarda bunga bunday o'smirlar o'ziga ishonmaganligi, o'z qobiliyatlarini baholay olmaganligi sabab bo'ladi. Bunday o'smirlarga chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari albatta yordam berishi kerak.

YUqorida aytib o'tilganidek, chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari majburiyatlariga o'quv yurti pedagogik jamoasi bilan o'quvchilarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasi va ommaviy mudofaa ishlari bo'yicha guruhdan va darsdan tashqari ishlarni o'tkazish ham kiradi. Darsdagi o'quv jarayoni chaqiriqqacha harbiy ta'lim fani bo'yicha o'qitishning asosiy shakli bo'lib hisoblansada, undan tashqari o'qitishni yana boshqa turli tuman shakllari ham mavjud.

Guruhdan va darsdan tashqari ishlar deyilganda, chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari pedagogik jamoa va o'quvchilarni uyushmalari tomonidan o'tkaziladigan turli xil o'quv-tarbiyaviy ishlar tadbirlari tushuniladi. CHaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari o'quv yurtida tuman, shahar miqyosida yoshlarning harbiy – amaliy sport turlari bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalarida, «SHunqorlar» harbiy - sport o'yinlarini tashkillash va o'tkazishda, shuningdek, o'quvchilar tomonidan «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlarini topshirilishini tashkillashda faol qatnashadi.

Guruhdan tashqari ishlar vaqtida chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari o'quvchilar o'rtasida harbiy bilimlar va ofitserlik kasbi bo'yicha tashviqot ishlarini olib boradi.<sup>6</sup>

Harbiy kasblarga qiziqqan va harbiy bilim yurtlariga kirishni xoxlagan o'quvchilardan harbiy bilim yurtlari uchun nomzodlar tanlaydi va ularni har tomonlama tayyorlaydi. Darsdan tashqari vaqtlarda chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari o'quvchilar bilan mashg'ulotlarni chaqiriqqacha harbiy ta'lim xonasida tashkillaydi, ularga chaqiriqqacha harbiy ta'lim bo'yicha maslaxatlar

---

<sup>6</sup> А.Ақбаров, Ш.Тилаволдиев. “Чақирикка қадар бошланғич тайёргарлик ва ҳарбий ватанпарварлик тарбияси”дан услубий тавсия. “Фарғона.” 2005 йил.



beradi, o'quvchilarni o'quv - moddiy bazasini yaratish va takomillashtirishga jalb etadi.

O'quv yili yakunida chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari chaqiriqqacha harbiy ta'lim bo'yicha o'quv jarayonini yakunlanishiga bag'ishlangan harbiy - sport bayramini o'tkazish bo'yicha asosiy tashkilotchi bo'ladi.

Mamlakatimiz o'quv yurtlarida o'quvchilar bilan guruhdan tashqari vaqtlarda turli shakl va uslublarda chaqiriqqacha harbiy ta'lim va harbiy vatanparvarlik tarbiyasi o'tkazish bo'yicha katta tajribalar to'plangan chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari uchun bu erda asosiy vazifa - bu tadbirlarni tartibli ravishda, o'quvchi yoshlarni ularni tayyorgarlik darajalarini xisobga olgan xolda va pedagogik talablar asosida o'tkazishdir.

Talabalar uchun esa asosiy vazifa - chaqiriqqacha harbiy ta'lim uslubiyoti va harbiy vatanparvarlik tarbiyasini o'rganishda pedagogik va psixologiya bo'yicha bilimlarga tayangan xolda bu tajribalarni o'zlashtirishdir.

Ba'zan yosh mutaxassislar oliy o'quv yurtini bitirganlaridan so'ng o'quv yurtlariga kelib, o'z majburiyatlarini yaxshi bilmasliklari sababli, chaqiriqqacha harbiy ta'lim lavozimini qabul qilishda juda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadilar va buning oqibatida moddiy javobgarlik, ayrim xollarda esa xatto jinoiy javobgarlikka tortilish kabi ko'ngilsizliklarga duch keladilar.

Bunday xollar yuz bermasligi uchun, chaqiriqqacha harbiy ta'lim bo'yicha yosh mutaxassis davozimni qabul qilish tartibini bilishi shart.

Bu quyidagilardan iborat:

Barcha xisobot va rejalashtiruv xujjatlari bilan tanishish, agar biror bir xujjat etishmasa ta'minot organlariga borib, ulardagi xisobot materiallari bilan solishtirishi kerak. O'quv yurtidagi barcha asbob - anjomlar, o'quv - qurollari, texnik ko'rgazmali vositalar va adabiyotlarni ro'yxat bo'yicha, shuningdek, o'quv moddiy bazasi va uning xolatini tekshirish kerak.

Qabul qilingandan so‘ng 4 - nusxada akt tuziladi va bu aktlar o‘quv yurti direktori tomonidan tasdiqlanishi kerak.

Agar qabul qilinayotgan narsalar kam yoki ortiqcha bo‘lsa, ma‘muriy tekshiruv o‘tkaziladi va shunga muvofiq xulosalar chiqariladi.

Lavozimga yangi tayyorlangan chaqiriqqacha harbiy ta‘lim rahbari o‘quv yurti direktori bilan suxbatda bo‘lib, o‘quv yurti bilan umumiy tarzda tanishadi, uning tarixi va o‘quvchilar xaqida ma‘lumotlar oladi. SHundan so‘ng o‘quv yurtining navbatdagi pedagogik kengashida direktor pedagogik jamoaga yangi chaqiriqqacha harbiy ta‘lim rahbarini tanishtiradi.

YUqoridagilardan kelib chiqib shuni yana ta‘kidlash kerakki, chaqiriqqacha harbiy ta‘lim fanining o‘qitishdagi va harbiy vatanparvarlik tarbiyasini olib borishdagi muvaffaqiyat birinchi navbatda chaqiriqqacha harbiy ta‘lim rahbarini yuksak kasbiy malakasiga, o‘quv yurti direktorining tashkilotchilik qobiliyatiga va butun pedagogik jamoani maqsadga yo‘naltirilgan uyushgan xoldagi ishlariga bog‘liq bo‘ladi.

## **1.2. CHaqiriqqacha harbiy ta‘lim fanini rejalashtirish jarayonida e‘tiborga olinishi lozim bo‘lgan omillar**

Rejalashtirishning maqsad va vazifalari. CHaqiriqqacha harbiy ta‘lim bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkillashda CHaqiriqqacha harbiy ta‘lim rahbari tomonidan ishlab chiqiladigan asosiy xujjatlar, ularning shakl va mazmunlari.

CHaqiriqqacha harbiy ta‘lim yoshlarni Qurolli Kuchlar safidagi harbiy xizmatga tayyorlash tizimining tarkibiy bir qismidir. Xalq ta‘limi bo‘limlari va o‘quv yurtlari ma‘muriyatlari chaqiriqqacha harbiy ta‘lim fani va harbiy - vatanparvarlik tarbiyasi ishlarini yuqori saviyalarda tashkil etilishi va o‘tkazilishi, buning natijasida esa, o‘quvchilar yosh jangchi kursi xajmidagi bilim va malakalarga ega bo‘lishlarini ta‘minlashlari kerak.

CHaqiriqqacha harbiy ta‘lim mashg‘ulotlari davomida o‘quvchilar Vatan himoyasi uchun zarur bo‘lgan harbiy ish asoslari bo‘yicha etarlicha bilim va malakalarni egallashi, Qurolli Kuchlar safidagi xizmatga chaqirilgan

vaqtda esa, bu bilimlardan foydalangan xolda, qisqa muddatlarda zamonaviy jangovar texnika va qurollardan foydalana olishni, ularni asrash va sozlash qoidalarini o'zlashtirib olishlari kerak.

CHaqiriqqacha harbiy ta'lim mashg'ulotlarining sifati va ularning tarbiyaviy ahamiyati to'g'ridan-to'g'ri chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbarining harbiy va pedagogik maxorati darajasiga, uning siyosiy-mafkuraviy etukligiga va uslubiy malakalariga bog'liq bo'ladi.

CHaqiriqqacha harbiy ta'lim mashg'ulotlarini sifatli bo'lishi uchun samarali o'qitish vositalari, ilmiy asosda tashkil etilgan o'qitish tizimi, mashg'ulot shakllari va uslublari bo'lishi zarur.

CHaqiriqqacha harbiy ta'lim bo'yicha o'quv jarayoni chaqiriqqacha harbiy ta'lim dasturi, me'yoriy xujjatlar va o'quv-uslubiy ko'rsatmalarga muvofiq, chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari tomonidan rejalashtiriladi va tashkillanadi.

CHaqiriqqacha harbiy ta'lim dasturida harbiy ta'lim bo'limlari, bo'limlar bo'yicha o'quv soatlari, mashg'ulot turlari va o'quv topshiriqlari belgilab qo'yiladi.

CHaqiriqqacha harbiy ta'lim dasturini rejalashtirishning asosiy vazifasi, o'quvchilar o'quv jarayonida o'zlashtirishlari kerak bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalar, axloqiy-siyosiy va jangovar sifatlarni optimal darajasini belgilashdan iboratdir.

CHaqiriqqacha harbiy ta'lim bo'yicha o'quv-tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish, boshqa fanlarga qo'yilgan talablar qanday bo'lsa, xuddi shunday talablar asosida olib boriladi va didaktikaning asosiy tamoyillari bilan belgilanadi.

O'rta maxsus bilim yurtlarida CHaqiriqqacha harbiy ta'lim dasturiga 140 o'quv soati ajratiladi. CHaqiriqqacha harbiy ta'lim dasturini rejalashtirishni o'ziga xos xususiyatlari bor. Dastur quyidagi bo'limlardan iborat:

1. Amaliy-jismoniy tayyorgarlik;
2. Saf tayyorgarligi;
3. Fuqarolar muhofazasi;
4. Harbiy ish asoslari;
5. Harbiy xizmat asoslari;
6. Tibbiy bilim asoslari;

«CHaqiriqqacha harbiy ta'lim» kursining

**Bo'limlari bo'yicha o'quv soatlari t a q s i m o t i**

<b>t/r</b>	<b>Bo'limlarning nomi</b>	<b>O'quv soatlarining umumiy miqdori</b>	<b>Ta'limning birinchi yili</b>	<b>Ta'limning ikkinchi yili</b>	<b>O'quv-dala mashg'ulot-lari</b>
1	Kirish	2	2	--	--
2	Amaliy-jismoniy tayyorgarlik	25	13	12	--
3	Otish tayyorgarligi	24	13	9	2
4	Fuqaro muhofazasi	27	15	12	--
5	Harbiy ish asoslari	21	4	13	4
6	Harbiy xizmat asoslari	23	7	6	--
7	Tibbiy bilim asoslari (harbiy-tibbiy tayyorgarlik)	6	6	--	--
8	Nazorat mashg'ulotlari	12	--	--	12
<b>Jami:</b>		<b>140</b>	<b>70</b>	<b>52</b>	<b>18</b>

**Ilova: Fuqaro muhofazasidan nazorat mashg'ulotlari (2 soat) o'quv dasturi yakunlangandan so'ng, birinchi o'quv yili oxiri yoki ikkinchi o'quv yili boshida o'tkaziladi.**

Bu bo‘limlarni har biri o‘quv mashg‘ulotlari tizimini qunt bilan rejalashtirishni talab etadi.

Darsdan tashqari vaqtlarda har haftada “SHunqorlar” harbiy-sport o‘yinlari dasturi bo‘yicha mashg‘ulotlar, har oyda esa, harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi fil’mlarni namoyish qilish va ommaviy-mudofaa ishlari to‘garaklaridagi mashg‘ulotlar rejalashtiriladi.

O‘quv rejasini tuzishda maxalliy sharoit va o‘quv-moddiy baza xolatini ham xisobga olish kerak. O‘quv yurti direktoriga ba’zi vaqtlarda sharoitlardan kelib chiqqan xolda, maxalliy mudofaa ishlari va xalq ta’limi bo‘limlari bilan kelishilgan vaziyatda, ayrim o‘quv bo‘limlarini o‘rganish tartibini o‘zgartirishga ruhsat beriladi. SHunday bo‘lsada, bo‘limlardagi o‘quv soatlari xajmi va mazmuni o‘zgartirilmaydi.

O‘quv yurti direktori o‘quv jarayonni tashkillashda CHaqiriqqacha harbiy ta’lim bo‘yicha o‘quv jarayonni boshlanishi va yakunlanishini belgilaydi. Vzvod va bo‘linma komandirlarini tayinlanganligi, o‘q otish bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazish xaqidagi buyruqlarni chiqaradi. CHaqiriqqacha harbiy ta’lim dasturini rejalashtirish bo‘yicha chaqiriqqacha harbiy ta’lim rahbariga ko‘rsatmalar beradi.

CHaqiriqqacha harbiy ta’lim rahbari direktor rahbarligi ostida chaqiriqqacha harbiy ta’limdan haftalar bo‘yicha mashg‘ulotlar rejasini, o‘quv jarayonini boshlanishi, vzvod va bo‘linma komandirlarini tayinlanganligi xaqidagi buyruqlar loyihalarini tayyorlaydi, shuningdek, harbiy-vatanparvarlik, darsdan tashqari ishlar, o‘quv-moddiy bazasini takomillashtirish bo‘yicha takliflarni kiritadi. Ular quyidagilardan iboratdir:

1. Mashg‘ulotlarning oylik jadvali, unda mashg‘ulot mazmuni, vaqti va o‘tkazish joyi, shuningdek, darsdan tashqari tadbirlar belgilanadi;

2. “O‘quv yurtida chaqiriqqacha harbiy ta’lim, jismoniy tarbiya va tibbiy tayyorgarlik bo‘yicha ishlarni tashkillash va o‘tkazish bo‘yicha uslubiy komissiya tuzilishi to‘g‘risida”gi buyruq; bu buyruqda pedagogik jamoaning,

chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari, jismoniy tarbiya o'qituvchisi va bilim yurti tibbiyot xodimlarining vazifalari yoritib beriladi;

3. "Vzvod va bo'linma komandirlarini tayinlash to'g'risida"gi buyruq; o'quv yurti direktorining bu buyrug'ida vzvodlarning raqamlari, komandirlarning familiyalari qayd qilinadi, chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbarining vazifalari va o'quvchilar tomonidan belgilab qo'yilgan kiyimbosh va xushmuomalik qoidalariga rioya qilinishi xaqidagi talablar bo'ladi. Bundan tashqari, vzvod komandirlarini intizomni saqlash va o'quv-moddiy bazasini takomillashtirish bo'yicha vazifalari aniqlanadi.

4. CHaqiriqqacha harbiy ta'lim, jismoniy tarbiya va tibbiy-sanitar tayyorgarligi bo'yicha o'quv yurti uslubiy komissiyasining yillik ish rejasi;

5. CHaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbarining yillik ish rejasi;

6. O'quv yurtining yillik ish rejasiga harbiy-vatanparvarlik, ommaviy-mudofaa ishlari va o'quv-moddiy bazasini takomillashtirish bo'yicha chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbarining takliflari;

7. YOsh armiyachi guruh komandirlari bilan olib boriladigan uslubiy mashg'ulotlarning rejasi;

8. "Kichik kalibrli miltiqdan o'q otishni o'tkazish" bo'yicha o'quv yurti buyrug'i;

9. "YUqori kurs o'quvchilari bilan o'quv-dala mashg'ulotlarini o'tkazish to'g'risida"gi o'quv yurti buyrug'i. Bu buyruq o'quv-dala mashg'ulotlari boshlanishdan 1 oy avval chiqarilib, unda mashg'ulotlar o'tkazish vaqti, o'quv-dala mashg'ulotiga chiqish uchun tantanali saflanish, vzvod va guruh komandirlarining familiyalari, o'quvchilarni mashg'ulot joyiga olib borish va havfsizlik qoidalari yoritib beriladi;

10. YUqori guruh o'quvchilari bilan o'quv-dala mashg'ulotlarini o'tkazishga tayyorgarlik tadbirlari rejasi ishlab chiqiladi.

Bu mashg'ulotlarni mudofaa-sport sog'lamlashtirish oromgoh-larida yig'in yo'li bilan o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

O‘quv-dala mashg‘ulotlariga harbiy qism harbiy xizmatchilarini, o‘qituvchi va zaxiradagi ofitserlarni jalb qilish bo‘yicha masalalar mudofaa ishlari bo‘limlari bilan kelishilgan xolda olib boriladi.

11. “CHAqiriqqacha harbiy ta’lim bo‘yicha o‘quv yilining yakuni to‘g‘risida”gi o‘quv yurti buyrug‘i; bu buyruqning asosini chaqiriqqacha harbiy ta’lim xolatiga, dasturni to‘la bajarilishiga qo‘yilgan baho va yangi o‘quv yili uchun pedagogik jamoa va o‘quvchilar uchun topshiriqlar tashkil qiladi.

12. “CHAqiriqqacha harbiy ta’lim dasturini yakunlanishiga bag‘ishlangan harbiy-sport bayramini tayyorlash va o‘tkazish to‘g‘risida”gi o‘quv yurti buyrug‘i; harbiy-sport bayrami rejasi uni o‘tkazishdan 2-3 oy avval ishlab chiqiladi va 1 oy oldin direktor tomonidan tasdiqlanadi.

13. CHaqiriqqacha harbiy ta’lim va harbiy-vatanparvarlik ishlarining xolati to‘g‘risidagi yillik xisobot.

YUqoridagilardan tashqari chaqiriqqacha harbiy ta’lim rahbari har bir mashg‘ulotga reja-konspekt yozadi. U direktor tomonidan tasdiqlanadi. Mashg‘ulot rejasida mavzu, o‘quv va tarbiyaviy maqsadlar, o‘quv savollari, vaqt, uslub, o‘quv-moddiy ta’minot va o‘quv materialining qisqacha mazmuni yoritiladi. Reja direktor tasdig‘iga 1 hafta oldin taqdim etiladi. Bu direktorni reja bilan tanishib chiqishi, zaruriyat bo‘lsa, o‘zining uslubiy ko‘rsatmalari bilan chaqiriqqacha harbiy ta’lim rahbariga yordam ko‘rsatishi bilan tushuntiriladi.<sup>7</sup>

### **1.3. CHaqiriqqacha harbiy ta’lim bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazishning asosiy shakl va uslublari, ularning o‘zaro aloqalari ta’minlash usullari.**

Har qanday o‘quv yurtidagi o‘qitish jarayonini asosini o‘quv ishlari tashkil etadi. O‘qitishning sifati o‘quv jarayonini tashkillash, mashg‘ulotlar o‘tkazishning shakllariga bog‘liq bo‘ladi. Mashg‘ulot shakli o‘quvchilar

---

<sup>7</sup> Yangi taхrirdagi ЧҚБТ дастури. 3. Бўтаев ва бошқалар. “Тошкент.” 2010 йил.

tarkibini, o'tkazish joyi, davomiyligi, CHaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbarining roli va boshqalarni nazarda tutadi. Mashg'ulot shakli CHaqiriqqacha harbiy ta'lim dasturida belgilangan bo'lib, uni o'zgartirish mumkin emas.

Mashg'ulot shakllari - bu o'quvchilarni o'qitish, mashg'ulotlarni tashkillashga yordam beruvchi shart - sharoitlar, shuningdek, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'ziga xos faoliyatlar yig'indisidir.

**CHaqiriqqacha harbiy ta'lim dasturi bilan quyidagi mashg'ulot shakllari belgilangan:**

- nazariy;
- amaliy;
- ko'rgazmali;
- taktik - saf mashg'ulotlari;
- taktik mashg'ulotlari;
- nazorat-sinov mashg'ulotlari.

Nazariy mashg'ulotlar, og'zaki bayon qilish bilan (ma'ruza, suxbat) o'tkazilib, o'quvchilarga o'rgatilayotgan materialning asosiy mazmunini beradi va ularda nazariy fikrlash, keng dunyoqarashni shakllantiradi, nazariya amaliyotning dolzarb muammolarini yoritib beradi. Nazariy mashg'ulotlar boshqa turdagi mashg'ulotlarni tashkillash va o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ko'rgazmali mashg'ulotlar - o'quvchilarni jangovar texnika va qurollar namunalari, shaxsiy tarkibning yashash arzi va xizmati bilan tanishtirish maqsadida namunaviy tarzda tashkil etilib o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlar - jangovar texnika va qurollar, priborlarni o'zlashtirish, ularni qo'llash usullarini egallash, asrash va saqlash qoidalarini o'rganish maqsadida o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilar tomonidan nazariy mashg'ulotlarda olingan bilim va malakalar takomillashtiriladi.



Amaliy mashg'ulotlar tushuntirish va ko'rgazmali uslub yordamida o'tkazilishi mumkin. Uning asosiy mazmuni har bir o'quvchining o'quv joyidagi bajarayotgan amaliy ishidir. Amaliy o'rgatishning yakuniy bosqichi bo'lib, taktik mashg'ulotlar hisoblanadi. Ular odatda dala-o'quv mashg'ulotlarida o'tkaziladi.

Taktik mashg'ulotlarda o'quvchilarga askar, razvedchik, kuzatuvchi vazifalarini jangovar vaziyatda bajarishning ko'nikma va malakalari singdiriladi.

Taktik - saf mashg'ulotlari, odatda taktik mashg'ulotlardan oldin o'tkaziladi va shaxsiy tarkibning harakat va usullarini jangovar vaziyatda qo'llash uslublarini o'rgatadi. Harakatlanishning usul va qoidalari ko'p marotaba takrorlash uslubi bilan o'rgatilishi mumkin.

Navbatdagi harakatni o'rganish, qachonki o'rganilayotgan harakat to'la o'zlashtirilib olingandan keyingina boshlanishi mumkin. Har bir savol uchun taktik vaziyat albatta yaratilishi kerak.

Nazorat - sinov mashg'ulotlari o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash va yakuniy baho chiqarish maqsadida o'tkaziladi. Odatda, nazorat mashg'ulotlari o'quv yilining so'ngi bosqichida, ya'ni, o'quv-dala yig'ini vaqtida o'tkaziladi.

### **O'qitish shakllari va uslublarining o'zaro aloqalari**

Har bir alohida mashg'ulotni, uni tashkillash nuqtai - nazaridan tariflasak, mashg'ulotlarning shakllari chaqiriqqacha harbiy ta'lim mazmuniga bog'liq bo'ladi va o'qitishning tamoyillari va uslublari bilan uzviy bog'langanligiga ishonch xosil qilamiz.

O'qitish shakllari va uslublarining o'zaro aloqasi shunda ifodalanadiki, har bir mashg'ulot shaklida aniq bir uslublar qo'llaniladi.

### **CHaqiriqqacha harbiy ta'lim fanini o'qitish uslublari.**

Ko'p yillik tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarni o'qitish muvaffaqiyati o'quv ishlari uslublaridan to'g'ri foydalanishga bog'liq bo'ladi.

O'qitish uslublari - bu rahbar va o'quvchilarning birgalikdagi ishlarining usullari bo'lib, buning yordamida o'quvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarni egallanishiga, ularni aqliy va jismoniy kuchlarini rivojlanishiga, bo'lajak jangchi uchun zarur bo'lgan sifatlarni shakllantirishga erishiladi

O'qitish uslublarini moxirona qo'llab va o'quvchilarni faolligi va ongliligiga tayanib, chaqiriqqacha harbiy ta'lim raxbari ularga bilim beradi, ularda ko'nikma va malakalarni shakllantiradi, ularni har tomonlama rivojlantiradi, ularda yuksak axloqiy, siyosiy va jismoniy sifatlarni tarbiyalaydi. Har bir uslub o'zaro bog'langan elementlardan iborat bo'lib, ular o'qitishning usullari deb ataladi. Bir xil bo'lgan usullar har xil uslublar tarkibiga kirishi mumkin, ba'zan esa ular o'qitish uslubi bo'lib ham kelishi mumkin.

Hayotning har bir xolatiga mos keluvchi universal uslubning o'zi yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. O'qitish jarayonining xususiyati har xil uslublardan foydalanishni taqozo etadi.

CHaqiriqqacha harbiy ta'lim jarayonida quyidagi o'qitishning asosiy uslublari qo'llaniladi:

1. Og'zaki bayon qilish (xikoya, suxbat, tushuntirish, ma'ruza);
2. Ko'rgazmali uslub;
3. Mashq uslubi;
4. Amaliy ish uslubi;
5. O'quv materialini mustaqil o'rganish uslubi. Bundan tashqari, agar moddiy - texnik ta'minot imkon bersa, o'qitishning zamonaviy uslublari ham qo'llanilishi mumkin:

6. Dasturlangan o'qitish uslubi;
7. Muammoli uslub;
8. Bilim va ko'nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirish uslubi;
9. Tayanch rejalar asosida o'qitish uslubi;
10. Musobaqa uslubi.

Biroq o'qitishning uslublarini bilish, o'quv jarayoni xaqidagi to'la tasavvurni bermaydi. Buning uchun yana ta'lim olayotgan o'quvchilar tarkibini, o'quvchilarning jamoaviy va yakka tartibda bilim olishlaridagi munosabatni, qachon va qanday sharoitlarda u yoki bu uslub qo'llanilishini, o'qitishning tashkiliy jixatlarini, ya'ni mashg'ulotlar shakli deb ataladigan jixatlarini bilish kerak.

O'qitish uslublari o'rtasida faqat farqlar emas, balki uzviy bog'liqlar ham bor. U bir uslubni muvaffaqiyatli qo'llanilishini, uning boshqa uslublar bilan uzviy bog'liqlikda bo'lishini taqazo etadi.

Masalan, og'zaki bayon qilish uslubi ko'p vaqtlarda suxbat va namoyish, mashqlarni ko'rsatish, ko'rgazmali tushuntirishlar bilan birgalikda qo'llaniladi. O'qitish uslublari o'zlarining atalishi bilan doimiydir, mazmun jixatidan esa ular o'zgarib boradilar.

Og'zaki bayon qilish uslubi nazariy bilimlarni o'rganishda aniq bir tartib asosida qo'llaniladi. So'z doimo o'quv jarayonida muxim o'rinni egallab kelgan. U faqat fikrlarni etkazish emas, balki yana o'quvchilar tuyg'ulariga ta'sir etuvchi tarbiya vositasi hamdir.

Bundan tashqari og'zaki bayon qilish manbalarda yoritilmagan ma'lumotlarni o'quvchilarga etkazishga imkon beradi. Og'zaki bayon qilishning asosiylari quyidagilardir: tushuntirish, xikoya, ko'rgazmali uslub va ma'ruza.

1. Tushuntirish - bu xodisalar, jarayonlar, harakatlar mazmunini yoritib berishdir. Bu erda asosan, fikr yuritish, isbot, xulosa katta o'rin tutadi. Tushuntirish o'quvchilarga qurol va texnika bilan muomala qilish usullarini, ulardan foydalanish qoidalari xaqida ma'lumotlar berish bilan birgalikda qo'llaniladi.

2. Xikoya - bu o'quv materialini qisqacha, namunali bayon qilishdir. Bayon asosan, aniq ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Xikoya davomida xikoya qilish (tartibli ravishda bayon qilish), material xaqida ma'lumot berish (tashqi aloqani og'zaki etkazish), fikr yuritish (fikrlashning tartibli ravishda bo'lishi, xulosa chiqarish).

Suxbat - bu o'quvchilarni yangi bilimlar bilan boyitishning qulay imkoniyatlaridan biridir. Bu erda suxbat o'quv materiallarini muxokama qilishning bir shakli sifatida ko'rilmoqda. Bundan tashqari suxbat o'quvchilarni oldin olgan bilimlarini aniqlab beradi, ularni chuqurlashtirib, tartibga soladi.

Maqsadga qarab suxbat quyidagicha bo'lishi mumkin:

– Ma'lumot beruvchi (yangi bilimlarni etkazuvchi);

– YOyilgan (olingan bilimlarni tartibga solish, chuqurlashtirish va mustaxkamlash);

– Nazorat - tekshiruv (o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasi).

Suxbat, qachonki oldindan tayyorlansa, maqsad va vazifalar aniq bo'lsa, o'quvchilarning bilim darajasi va mazmuni xisobga olinsa, ijobiy natijalar berishi mumkin.

Ko'rgazmali uslub - bu usullar va harakatlar yig'indisi bo'lib, ular yordamida o'quvchilarda o'rganilayotgan predmet xaqida aniq ko'rgazmali obrazlar yaraladi, qurollar, texnika va fuqarolar himoyasi bo'yicha priborlarning tuzilishi xaqida tasavvurlar shakllanadi. Ko'rgazmali uslub saflanish, qurol bilan harakatlanish usullarini, shuningdek taktika mashg'ulotlarida, masalan, ichki va qorovullik xizmatini o'rganishda qo'llaniladi.

Og'zaki bayon jarayonida tasviriy, grafik va shunga o'xshash har xil vositalarni, ballistika elementlarini o'rganish bo'yicha tajribalarni namoyish qilish qo'rgazmali uslubning bir turi bo'lib xizmat qiladi. O'rganilayotgan harakat va usullar shaxsan CHaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari tomonidan maxsus tayyorlangan seksiya komandirlari, aolochilar va texnik vositalar yordamida ko'rsatilishi mumkin.

CHaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari tomonidan saf, qurol bilan harakat qilish va taktik mashg'ulotlardagi usullarni shaxsan namoyish qilish, o'quvchilar uchun namuna, bir bilim manbai bo'lib xizmat qiladi.

Odatda harakat va usullarni qismlar bo'yicha ko'rsatish qisqa tushuntirish bilan olib boriladi.

CHaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbarining tashqi ko'rinishi, saf tayyorgarligi, o'quvchilarni harbiy xizmatga, ofitserlik kasbiga bo'lgan intilishlarini tarbiyalashda muxim o'rin tutadi.

Mashg'ulotlarda shaxsiy namoyish bilan bir qatorda, ayniqsa saf tayyorgarligida, yaxshi tayyorlangan seksiya komandirlari tomonidan bajarilayotgan harakatlardan ham keng foydalanish kerak.

O'quvchilar tomonidan harbiy qismlarga tashrif buyurilganda, ularga bo'linmalarning saf, o't ochish, harbiy ish asoslari bo'yicha namunaviy harakatlar namoyish qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Mashq - bu biror bir harakat yoki usullar bo'yicha malakalar xosil qilish va ularni rivojlantirish maqsadida murakkablashtirilgan xolatda ko'p marotaba takrorlash uslubidir.

Mashqlar jarayonida o'quvchilar qurollar va texnikalardan foydalanish, ularni sozlash qoidalari, taktik, o't ochish, texnik vazifalarni echish usullari, saf mashqlari bo'yicha amaliy malakalarni egallaydilar.<sup>8</sup>

O'quvchilar tomonidan maqsadni, mashqlar bajarilishini tartibliligini tushunish katta ahamiyatga egadir. O'rganish davomida murakkab harakatlarni qismlarga bo'lish mumkin. Mashqlar jarayonida avval, harakatlarni to'g'ri bajarishga, keyin esa, uni tezlatishga harakat qilinadi.

Amaliy ish - qurol va texnikalarni sozlash, ularni asrash va boshqa harakatlarni bajarishda o'quvchilarni o'qitishning eng muxim uslublaridan biri bo'lib Hisoblanadi.

---

<sup>8</sup> Чақирикка қадар бошланғич тайёргарлиги Низоми. Русча нашр. 1993 йил

Mustaqil o'rganish - o'quv materialini maketlar, sxemalar, ko'rgazmali qo'llanmalar va qurollarni qismlarga yoyish va yig'ish usullari yordamida amalga oshiriladi. U odatda, qo'llanmalar, me'yoriy xujjatlar va boshqa adabiyotlarni o'rganish va takrorlash bilan birga olib boriladi. Mustaqil ish sifatini oshirishda CHaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari tomonidan uni tashkillash, topshiriqlar xajmini aniqlashda ko'rsatiladigan yordam katta ahamiyatga egadir.

O'qitish amaliyotida mashg'ulotlarda o'qitish va tarbiyalashning bir necha uslublaridan foydalanuvchi kompleks uslub keng tarqalgan. Xozirgi sharoitlarda o'quv jarayonini samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardan biridir.

CHaqiriqqacha harbiy ta'lim tizimida ilg'or rahbarlar tajribasiga asosan, o'qitishning quyidagi zamonaviy uslublari keng yoyilmoqda.

Dasturlangan o'qitish uslubi - o'quv materialini bir necha qismlarga bo'lishni nazarda tutadi. Bu uslub jarayonida mashg'ulot rahbari o'quv joylaridan har bir qism o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilganligi xaqida ma'lumot olib turishni taqazo etadi. Muammoli o'qitish uslubida o'quvchilarga so'ngi xulosalar e'lon qilinmaydi, balki, xaqiqatni topish, to'g'ri qaror qabul qilish uchun yo'l-yo'riqlar ko'rsatib beriladi. O'rganilayotgan material muammoli xususiyatda bo'lishi uchun shunday savolni topish kerakki, u o'quvchilar tomonidan nafaqat muammoli bo'lib qabul qilinishi, balki yana ularni xayajonlantirib, ularda bu savolga javob topishga qiziqish uyg'otishi zarur. Mashg'ulotlarda muammoli vaziyatlarni yaratish, o'quvchilarni o'quv materialiga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularni fikrlash qobiliyatini faollashtirishga imkon yaratadi.

Bilim va malakalarni bosqichma - bosqich shakllantirish uslubi - mashg'ulotlarda harakatlarning namunali jadvallarini, o'quv-mashq haritalarini, chizmalar, foto-suratlar va boshqalardan foydalanishni nazarda tutadi. Bu uslub amaliy ishlarning tartibli ravishda amalga oshishiga imkon

yaratadi. O'quvchilar yuqoridagi vositalardan foydalangan xolda, harakatlarni avval sust tezlikda bajaradilar. O'quv topshiriqlari o'quvchining shaxsiy nutqiga tayangan xolda bajariladi, ya'ni ular bajarayotgan harakatlarini ovoz chiqarib olib boradilar.

Bu uslub bir vaqtni o'zida bilim va malakalarni egallashga imkon yaratadi, bu esa o'quv jarayonini samaradorligini oshirishga sabab bo'ladi. Bu uslub yangi texnika va qurollarni o'rganishda keng qo'llaniladi.

Ma'lumki, inson xotirasida 10% o'qiganlarini, 20% eshitganlarini va 30% ko'rganlarini saqlab qoladi. Bir vaqtni o'zida eshitish va ko'rish esa 50% materialni xotirada saqlab qolsa, so'zlangan narsalarni 70% ni, so'zlab va o'sha harakatlarni bajarsa 90% ni saqlab qolishi mumkin. SHuning uchun ham, o'z nutqiga tayangan xolda o'quv topshiriqlarini bajarishga asoslangan bu uslub eng zamonaviy uslublardan biri bo'lib hisoblanadi.

Tayanch rejalar asosida o'qitish uslubi. SHatalin uslubi deb nomlangan bu uslubning mazmuni shundan iboratki, bu erda o'quv materialini tayanch rejalar asosida o'quvchilarga etkaziladi. Tayanch rejalar o'quv materialini muxim tomonlarini, sanalarni, tarif, atama va ular o'rtasidagi aloqalarni o'z ichiga oladi. Bu uslubda o'qitishda o'quv materialini mustaxkam o'zlashtirilishiga, uni takrorlash uchun vaqtni qisqartirishga erishiladi.

## **II. BOB. MASHG‘ULOTLARNI TASHKILLASH VA O‘TKAZISHDA TA‘LIMNING USLUBLARI VA VOSITALARINING AHAMIYATI**

### **2.1. CHaqiriqqacha harbiy ta‘lim mashg‘ulotlarini tashkillaash va o‘tkazishga qo‘yiladigan asosiy talablar**

O‘quv muassasalarida o‘spirinlarni chaqiriqqacha tayyorlash ushbu Dastur talablari asosida rejalashtiriladi. Bu reja dasturning to‘liq bajarilishini va uning har bir bo‘limini boshqa fanlari bilan hamkorlikda o‘rganishni ta‘minlashi shart.

Har bir o‘quv muassasasida yarim yil yoqi butun o‘quv yili uchun chaqiriqqacha yoshlarni tayyorlashning xaftalik (oylik) rejasi tuziladi. Dars jadvalida ushbu fanga ajratilgan o‘quv soatlari ko‘rsatiladi.

Mashg‘ulotlarni tashkiliy jixatdan yaxshi uyushtirish va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy nizomlari talablarini o‘quvchilarga amaliy jixatdan singdirish maqsadida o‘quv muassasasi direktorining buyrug‘iga asosan guruhlarda o‘quv guruhlari va seksiyalari tashkil qilinadi. Alochi, intizomli o‘quvchilardan guruh va seksiya boshliqlari tayinlanadi.

O‘quvchilarning o‘quv mashg‘ulotlarida olgan bilim, ko‘nikma va malakalari darsdan tashqari o‘tkaziladigan quyidagi tadbirlar orqali mustaxkamlanadi:

- harbiy ish asoslarini o‘rgatuvchi to‘garaklar va sportning harbiy-amaliy turdagi sho‘‘balarini tashkil etish;
- harbiy-sport musobaqalari, harbiy o‘yinlar o‘tkazish va tashkil qilish;
- o‘quvchilarni o‘quv yurtidan tashqari harbiy - texnika, sport-sog‘lomlashtirish va boshqa yo‘nalishdagi muassasalarga jalb qilish.

CHaqiriqqacha harbiy ta‘lim bo‘yicha darsdan tashqari mashg‘ulotlar va tadbirlarni saf qoidalari mavzuini o‘rganishdan boshlash tavsiya qilinadi. Harbiy rahbar va o‘quvchilar orasidagi o‘zaro munosabatlar O‘zbekiston



Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy Nizomlari talablari asosida oʻrnatilgan maqsadga muvofiq boʻladi.

CHaqiriqqacha harbiy taʼlim mashgʻulotlari uchun mashgʻulotning turiga mos keladigan kiyim (forma) tanlanadi. Mashgʻulotning turiga, ularda bajariladigan mashqlar (amallar, harakatlar) va xal qilinadigan vazifalarning xarakteri va shart-sharoitiga bogʻliq xolda, bu kiyim (forma) ushbu oʻquv muassasa uchun belgilangan kundalik, sportchilar yoki yosh armiyachilar kiyimi boʻlishi mumkin.

Kichik kalibrli (pnevmatik) miltiqdan oʻt otish mashqlari oʻquvchilarning oʻq otish qurolidan otish qoidalari va usullarini qay darajada oʻzlashtirib olganligini tekshirib va ularni jangovar oʻqlar bilan avtomatdan otish boʻyicha dastlabki mashqlarga tayyorlash masadida oʻtkaziladi.

Kichik kalibrli (pnevmatik) miltiqdan otish mashqlarini bajarish maxsus jixozlangan tirlarda (oʻq otish joylarida) xavfsizlik qoidalariga rioya qilingan xolda tashkil qilinadi. Otish xavfsizligi taʼminlanmagan tirlarda otish mashqlarini bajarish va otish mashqlariga rahbarlikni oʻquvchilardan biriga topshirib qoʻyish qatʼiyan man qilinadi.

Kichik kalibrli (pnevmatik) miltiqdan otish mashqlariga otish qoidalarini mukammal oʻrgangan, xavfsizlik qoidalariga rioya qiladigan, otish tartibini biladigan oʻquvchilargina qoʻyiladi. Qolgan oʻquvchilar ushbu talablarga javob bera oladigan darajaga etgandan soʻng, darsdan tashqari tadbirlarda otish mashqlarini bajaradilar.

Har bir oʻquvchi kichik kalibrli miltiqdan yoki avtomatdan otish mashqini bajargandan soʻng nishon oldiga olib kelinadi va otish natijalari taxlil qilinadi.

Avtomatda jangovar oʻqlardan otish mashqlari maxsus jixozlangan tirlarda (xonalarda) yoki otish maydonlarida garnizon boshligʻi (harbiy qism boshligʻi, harbiy oʻquv muassasasi boshligʻi) va oʻrta maxsus, kasb-xunar

ta'limining viloyat boshqarmasi bilan kelishilgan xolda tuman, (shahar) mudofaa ishlari bo'yicha bo'limlari rejalari asosida o'tkaziladi.

Otishni tashkil qilish va amalga oshirish tartibi «Quruqlikdagi qo'shinlar otish qurollari, jangovar mashina va tanklardan "Otish kursi" da belgilangan.

Otish mashqlarini boshlashdan avval, otish mashqlari rahbari o'quvchilarning xavfsizlik qoidalarini, avtomatning tuzilishi va qismlarini, joydan turib paydo bo'luvchi va harakatsiz nishonlarga o'q otish tartib - qoidalarini qay darajada bilishini tekshiradi. Ushbu qoidalarni bilmagan o'quvchilar mashqlarga qo'yilmaydilar.

O'quv yurtlaridan o'quv otish qurollari va o'q-dorilar vaqtincha olib qo'yilganligi sababli otish tayyorgarligi bo'yicha o'tiladigan nazariy mashg'ulotlarda qurol - aslaxalarning chizmalari va diafil'mlardan, mashg'ulotlarda esa qurol - aslaxalar, granatalar va minalarning nusxalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Harbiy rahbar o'quv qurol - aslaxalarni o'quv yurtlariga berish va ularni saqlash xaqida maxsus buyruq yoki boshqa bir xujjat olmaguncha, uning tegishli vazirlik va tashkilotlardan o'quv muassasasini maxsus tabelga muvofiq qurol - aslaxa, artilleriya va muxandislik vositalari bilan ta'minlashni talab qilishga xaqqi yo'q.

CHaqiriqqacha harbiy ta'lim mashg'uloti guruhni 2 - sherengali safga saflanishi va navbatchining guruhning mashg'ulotga tayyorligi to'g'risidagi ma'lumotlar bilan boshlanadi. O'quvchilarni komandalarni to'g'ri bajarishga, saf intizomiga rioya etishga o'rgatish maqsadida saflanish odatda, chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari nazorati ostida amalga oshiriladi.

O'quv dala yig'ini vaqtida esa, mashg'ulotlar odatda yig'inni butun shaxsiy tarkibini umumiy saflanishi, ya'ni tarqatishni o'tkazish bilan boshlanadi. Buning uchun yig'in xududida guruh va seksiyalarni tantanali saflanishi, ertalabki tekshiruv va mashg'ulotlarga tarqatish uchun doimiy

saflanish joyi tayyorlanadi. Saflanish joyida tribuna va bayroqni ko'tarish va tushirish uchun bayroq ustuni jixozlanadi.

Mashg'ulot boshlanishida guruh komandiri yoki navbatchini ma'lumotnomasi qisqa bo'lishi va zarur axborotlarni etkazishi kerak. Masalan; «O'rtoq leytenant» 2-chi guruh 28 kishi tarkibida chaqiriqqacha harbiy ta'lim mashg'ulotiga tayyor (saflandi). Guruh komandiri - Karimov.

Raport (ma'lumotnoma) berilgandan so'ng, navbatchi qo'lini bosh kiyimidan tushirmay turib (agar u bosh kiyimda bo'lsa), o'ng yoki chap tarafga 1-2 qadam yuradi va chap yoki o'ng tomonga burilib, mashg'ulot rahbarini oldiga o'tkazgan xolda undan 1-2 qadam orqada turadi (yuradi).

Navbatchi raport qilib bo'lgandan so'ng, chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari saf o'rtasiga keladi va safdan 3-4 qadam oldinda, safga yuzlangan xolda o'quvchilar bilan «Salom, o'rtoqlar» degan xolda salomlashadi.

O'quvchilar salomlashishga baland, aniq va uyushgan xolda «Assalom» deb javob berishadi.

Mashg'ulotlarda doimiy ravishda tartib va uyushqoqlik saqlanishi kerak. chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari biror bir o'quvchiga murojat qilsa, o'quvchi tez, o'rnidan turib, «Rostlan» xolatiga o'tib «O'quvchi Botirov» deb o'zini tanishtiradi. Agar mashg'ulot rahbari o'quvchini familiyasi bilan murojat qilsa, o'quvchi «Men» deb javob beradi. O'tirishga ruhsat olgandan so'ng «Xo'p bo'ladi» deb o'z joyiga o'tiradi.

Agar o'quvchi chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbariga murojat qilmoqchi bo'lsa, qo'lini ko'taradi, ruxsat olgandan so'ng o'rnidan turadi, «Rostlan» xolatiga o'tib «O'quvchi Botirov» deb o'zini tanishtiradi va shundan so'ng savol beradi yoki murojat etadi.

O'quvchilar mashg'ulotlarga ko'rsatilgan kiyim - boshda, toza va saranjom xolda kelishlari, harbiy muomala va intizom qoidalariga so'zsiz amal qilishlari kerak.

Mashg'ulotlarga tayyorlanishda chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbariga quyidagilar tavsiya etiladi:

1. Mavzu va o'quv savollarini aniqlash;
2. O'quv va tarbiyaviy maqsadlarni belgilash:
  - o'quv savollarini o'tish tartibi;
  - mashg'ulotni moddiy ta'minoti;
  - tekshiruv uchun savollar.
3. Nizom, yo'riqnomalar va o'quv adabiyotlarini o'rganish;
4. Amaliy usullarni bajarish bo'yicha tayyorgarlik.
5. Mustaqil ta'lim uchun vazifa belgilash.

Mashg'ulot o'tish joyi va o'quv moddiy baza oldindan tayyorlab qo'yilgan bo'lishi kerak.

Amaliy, taktik - saf, taktik mashg'ulotlarga tayyorlanishda chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari guruh komandiri va yordamchilar bilan ko'rgazmali mashg'ulot o'tkazadi, ularga amaliy usullar va xarakterlar qanday tartibda bajarilishini ko'rsatadi va bu usullarni to'g'ri bajarib ko'rsatishga o'rgatadi.

Mashg'ulotga tayyorgarlik mashg'ulot rejasini yozish bilan yakunlanadi. Mashg'ulot (dars) bir - biriga uzviy bog'langan kirish, asosiy va yakuniy qismlardan iborat bo'ladi.

Darsning kirish qismida guruh saflanishi o'tkaziladi, mashg'ulot rahbariga raport beriladi, o'quvchilarning tashqi ko'rinishi va o'tilgan mavzuni o'zlashtirilganlik darajasi tekshiriladi. Guruhning har bir saflanishida chaqiriqqacha harbiy ta'lim rahbari guruhni to'g'ri saflanganligiga, saf intizomi rioyasiga, o'quvchilar tomonidan safdagi majburiyat to'g'ri bajarilishiga e'tibor beradi va kamchiliklarni tuzatishga xarakter qiladi.

Darsning kirish qismida o'quvchilar tomonidan zaif o'zlashtirilgan xarakter va usullar, komandalar bajariladi, o'tilgan mavzu bo'yicha tekshiruv o'tkaziladi. Bajarilgan xarakter va berilgan javoblar uchun o'quvchilar baholanadilar.

Darsning asosiy qismida mavzu e'lon qilingandan so'ng, o'quv savollari mazmuniga qarab, yangi o'quv materiali bayon qilinadi va uning mustaxkamlanishi o'tkaziladi. Yangi materialni mustaxkamlash o'quv materiali to'liq yoki asosiy o'quv savollari tushuntirilgandan so'ng, savol - javob shaklida o'tkazilishi mumkin.

O'quvchilarni amaliy harakat va usullarga o'rgatish, odatda, o'rnatilgan tartib asosida olib boriladi. Mashg'ulot rahbari amaliy harakat yoki usulni to'liq xolda namunali qilib ko'rsatadi, so'ng uni o'quvchilarga elementlar bo'yicha bajarilishini tushuntiradi va uni o'rgatishga kirishadi. Harakat va usullarni bajarish asta - sekinlik bilan olib boriladi, bunda asosiy e'tibor ularni to'g'ri bajarilishiga qaratiladi. O'qitish davomida xarakatlarni bajarish tezligi ortib borib, natijada avtomatik ravishda bajarilishi kerak.

Darsning yakuniy qismida uning yakuni o'tkaziladi, o'quvchilarni mashg'ulotdagi xarakatlari va javoblari uchun baho qo'yiladi, bajarilgan harakat va berilgan javoblardagi kamchiliklar va ularni tuzatish yo'llari ko'rsatiladi, alohida o'quvchilarning namunali harakat va javoblari ta'kidlab o'tiladi.

Dars yakunida o'quvchilarga mustaqil tayyorgarlik uchun vazifalar beriladi va navbatdagi mashg'ulot mavzusi o'quvchilarga etkaziladi.

Mashg'ulot to'liq xolda o'quvchilarda yuksak axloqiy - siyosiy sifatlarni shakllantirishga, ularni Vatan himoyasi bo'yicha o'z konstitutsion burchlarini bajarishga tayyorlashga, ularda nizom talablariga muvofiq o'rganilayotgan mavzular darajasida zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

## **2.2. O'quv yurtlarida chaqiriqqacha harbiy ta'lim fanining o'quv-moddiy bazasi va moddiy-texnik ta'minotning mashg'ulotlar samaradorligiga ta'siri.**

O'zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida» gi qonuni bilan amalga kiritilgan CHHT harbiy ta'limning

majburiy davlat shakli bo'lib xisoblanadi va yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridagi harbiy xizmatga tayyorlash tizimining muxim qismini tashkil etadi. CHHTni samaradorligi ko'p jihatdan o'quv tarbiyaviy jarayonini qanday tashkillanganligi va amalga oshirilayotganligiga bog'liq. Uning asosiy to'ldiruvchilari bo'lib, quyidagilar xisoblanadi: ilmiy asoslangan o'quv dasturi, mashg'ulotlarning optimal uslublari va ularga muvofiq bo'lgan o'quv moddiy baza. YUqorida ko'rsatib o'tilgan birinchi ikki to'ldiruvchining ahamiyatini kamsitmagan xolda, shuni aytib o'tish kerakki, harbiy ta'limda eng asosiy xal qiluvchi o'rinni o'quv-moddiy baza egallaydi. Bu birinchi navbatda CHHT ni o'ziga xos xususiyatlari, uning o'quv jarayonini ko'p qirraligi va amaliy yo'nalishga ega ekanligi bilan tushuntiriladi. Masalan: o'quv qurollari bo'lmasa uni o'rganish mumkin emas va xokazo.

CHHT dasturiga muvofiq har bir o'quv yurtida o'quv moddiy bazaning quyidagi elementlariga ega bo'lish tavsiya etiladi:

1. CHHT xonasi;
2. Qurol saqlash xonasi;
3. Saf tayyorgarligi mashg'ulotlari uchun maydon;
4. Otish tiri;
5. Taktik tayyorgarlik va fuqarolar muhofazasi bo'yicha mashg'ulotlar uchun o'quv maydonchasi;
6. O'q otish qoida va usullarini amaliy o'rganish joyi;
7. Soqchi majburiyatlarini amaliy o'rgani joyi;
8. Posbon majburiyatlarini amaliy o'rganish joyi;
9. Qurolni tozalash va moylashni o'rganish uchun joy;
10. Gimnastika shaharchasi va to'siqlar majmui;
11. O'qituvchilarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha ko'rgazmali tashviqot vositalari;
12. Jangovar va mexnat shuxrati muzeyi yoki xonasi.

O'quv dalasi va maydonlarda, shuningdek o'quv shaharchasi xududida o'z navbatida, o'quv joylari yaratiladi. Masalan, o'q otish qoida va usullarini amaliy o'rganish maydonchasida o'quvchilar har xil xolatlardan otishga tayyorgarlik, nishonga olish o'quv granatalarini uloqtirish, avtomatni yoyish va yig'ish o'quv moddiy bazasini barcha elementlari faqat o'quv jarayonida emas, balki safdan va sinfdan tashqari ishlar vaqtida ham keng qo'llaniladi.

### **CHHT xonasi**

CHHT xonasi quyidagi maqsadlarda jixozlanadi:

- CHHT dasturini barcha bo'limlarini o'rganish uchun (asosan, nazariy) zarur o'quv-moddiy bazasini yaratish;
- CHHT bo'yicha o'quv mashg'ulotlari va sinfdan tashqari tadbirlarini o'tkazish, olingan bilimlarni mustaxkamlash va chuqurlashtirish;
- harbiy bilimlarni tashviqot qilish, o'quvchilarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha ommaviy-mudofaa tadbirlarini o'tkazish va ularni harbiy kasblarga yo'naltirish.

CHHT xonasi quyidagi asosiy talablarga javob berishi kerak:

- Mashg'ulotlar o'tkazishga qulay xona, sanitar-gigienik me'yorlariga javob beruvchi, asbob-anjomlar, ko'rgazmali o'quv-qurollarini saqlash uchun laboratoriya xonasiga ega bo'lishi;
- O'quv mashg'ulotlari va sinfdan tashqari tadbirlarni o'tkazishga doim tayyor bo'lishi, darslar davomida nafaqat o'quv, balki tarbiyaviy vazifalarni echishga imkon berishi;
- O'qitishda maksimal ko'rgazmalikni ta'minlashi va bir vaqtni o'zida o'quvchilarga mustaqil vazifalarni bajarish uchun sharoitlar yaratishi;
- O'quv adabiyotlariga, ko'rgazmali qurollarga va tabelga muvofiq CHHT bo'yicha asbob-anjom va buyumlarga ega bo'lishi;
- Namoyish qilinayotgan o'quv materiallarini ko'rgazmaliligi, mazmuni xona inter'erini badiiy bezashganligi bilan muvofiqlash.

CHHT xonasi keng, shinam va yorug' bo'lishi kerak.

CHHT xonasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Sinf mebellari, uslubiy o'quv jixozlari, laboratoriya xonasi, o'quv qurollari, o'qitishni texnik vositalari.

Sinf mebellarini ufqal yuzaga ega bo'lgan o'qituvchilar stol va stullari, o'qituvchi stoli, o'quv jixozlarini namoyish qilish stoli, kinoapparat va diaproskop uchun moslama, sinf doskasi va ko'rsatkich tashkil qiladi. CHHTda stol qatorlari devordan 50 sm uzoqlikda bo'lishi kerak.

CHHT xonasini uslubiy - o'quv jixozlari asosini dasturning har bir bo'limi uchun jixozlangan stendlar tashkil qiladi va ular quyidagi tartibda joylashtiriladi:

1. Amaliy - jismoniy tayyorgarlik.
2. O't ochish tayyorgarligi;
3. Fuqarolar muhofazasi;
4. Harbiy ish asoslari;
5. Harbiy xizmat asoslari;
6. Tibbiy bilim asoslari;

«Saf tayyorgarligi» bo'yicha stend koridorda, o'quvchilar mashg'ulotlar oldidan saflanadigan joyga joylashtirilishi mumkin.

Barcha stendlar mavzu yoki alohida o'quv savollari bo'yicha jixozlanadi.

Planshetlar dastur mavzularini o'tib borish davomida stendga osib qo'yiladi.

Honaning yuz tomoniga, doska ustiga A.Temur portreti va O'zbekiston Konstitutsiyasining 52- moddasidan ko'chirma, doskani o'ng va chap tomonlariga esa Harbiy Qasamyod matni va Harbiy qism Jangovar Bayrog'i to'g'risidagi Nizom joylashtiriladi.

CHHT xonasida o'quvchilar bilan taktik mashg'ulotlar o'tkaziladigan o'quv xaritasi yoki xududning maketi o'rnatiladi. Bu xududda gruppani tayanch punkti elementlari va «gruppa xujumda» mavzusi bo'yicha taktik vaziyat yaratiladi.



Laboratoriya xonasida, agar bunda xona bo'lmasa, CHHT xonasida o'quv anjomlari va asboblarni taxlash joylari jixozlanadi.

Bundan tashqari CHHT xonasiga ekran o'rnatiladi va deraza pardalar yopilishi uchun avtomatik yoki yasama moslama jixozlanadi.

### **Qurol saqlash xonasi**

Qurol saqlash xonasi o'quv qurollari, kichik kalibrli vintovkalar va o'q - dorilarni olish, saqlash va xisobotini yuritish bo'yicha yo'riqnoma talablariga muvofiq jixozlanadi.

U o'quv yurtidagi o'quv qurollari, kichik kalibrli vintovkalar va o'q - dorilarni ishonchli saqlashni ta'minlash uchun mo'ljallangan.


SHaxsiy ximoya vositalari, radiostansiyalar, radiatsion va kimyoviy razvedka asboblari va boshqa buyumlar laboratoriya xonasi yoki CHHT xonasida saqlanadi.

Agar qurol saqlash xonasida qurollardan tashqari boshqa buyumlarni ham saqlashni iloji bo'lsa, u xolda xona eshigi ichki devor (temir panjara) bilan ajratilgan bo'lishi kerak. Xonaning birinchi qismida tabel bo'yicha buyumlar, ikkinchi qismida esa qurollar saqlanadi.

Qurol saqlash xonasi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- binoning boshqa xonalaridan alohida bo'lishi, qalin devorlar, mustaxkam pol va tomga ega bo'lishi;
- Mustaxkam va ishonarli yopiladigan ikki eshikcha: tashqaridagi eshik taxtali bo'lib, taxta qalinligi 40 santimetrdan kam bo'lmashligi, ikki tomonlama temir tunuka bilan maxkamlangan bo'lishi, ichkaridagi eshik esa temir panjarali bo'lib, panjaralar diametri 15 mm dan katta bo'lmashligi kerak.
- Derazalar ham diametri 15 mm dan katta bo'lmagan panjaralar bilan to'silgan bo'lishi kerak.

Binoning birinchi qavatida joylashgan qurol saqlash xonalarining



derazalari, bundan tashqari ichki tomonida temir to'siqlar bilan maxkamlanadi. Eshik va derazalar qulflanadigan bo'lishi lozim va ular plombalanadi yoki muxrlanadi.

- qurol saqlash xonasi qo'riqlov signalizatsiyasi bilan jixozlangan bo'lib, u ichki ishlar qo'riqlash bo'limiga ulanadi.

SHkaf (piramida) eshigining ichki tomonida ramka ichida shkafdagi narsalarning ro'yxati (opis) yozib qo'yiladi:

- shkaf (piramida)da saqlanayotgan o'quv qurollari va kichik kalibrli miltiqlarning ro'yxati quyidagi shaklda yozilib, shkaf ichiga ilinadi:

#### RO'YXATI

t/r	Qurol nomi va turi	Soni	Nomeri	Izoh
1	AK-74	1	452123	
2	AK-74	1	256321	
3	TOZ-8	1	856496	

#### **Saf tayyorgarligi mashg'ulotlari uchun maydon (plats).**

Saf tayyorgarligi mashg'ulotlari uchun maydon asfaltli yoki betonli bo'lishi mumkin. Maydonchanning hajmi bir vaqtning o'zida sinfning barcha o'quvchilari bilan mashg'ulot o'tkazishga imkon berishi lozim. Maydonga yaxshi ko'rinadigan chiziq bilan belgilar qo'yiladi. Maydonchani perimetri bo'ylab 0,7 x 1,5 m xajmdagi shitlarga asosiy saf usullari tasviri qo'yiladi. O'rgatish jarayonida o'zini nazorat qilish va ust-boshni to'g'rilash uchun maydon chegarasiga oyna qo'yilishi mumkin. Bundan tashqari o'quv yurti

hajmida yuk avtomashinasi kuzatuv maketi o'rnatilishi mumkin. Unda o'quvchilar mashinaga chiqish va tushish usullarini mashq qiladilar. Qurol bilan saf usullarini o'rganish uchun, bir seksiyaga etadigan qurol maketlari bo'lishi kerak.

### **O'q otish joyi (tir).**

O'q otish joyi (tir) deb, o'q otar qurollardan o'q otishni xavfsiz o'tkazish uchun mo'ljallangan bino yoki xuddagi maxsus joyga aytiladi. O'q otish joyini maxsus qurilgan binoda, shu maqsad uchun qayta qurilgan binoda yoki jixozlangan xudud (ochiq joyda) joylashtirish mumkin.

Xavfsizligi bo'yicha tirlar uch turga bo'linadi;

- yopiq;
- yarim yopiq;
- ochiq

Barcha o'q otish tirlari o'q otish paviloni va o't ochish zonasi (qismi)dan iborat bo'ladi. O'q otish pavilonining hajmiga qarab, u erda qurol tozalash xonasi, o'q otishni nazariy o'rganish sinfi va boshqa xonalar bo'lishi mumkin. Bu xonalarning soni va hajmi tirning turi, uning kattaligi va loyihadagi sharoitlarga bog'liq bo'ladi.

O't ochish zonasi - bu o't ochish chizig'i bilan o'qni tutib qoluvchi moslamalar o'rtasidagi ochiq joydadir. U to'la xolda yoki qisman tepadan va yon tarafdin o'qni o'tkazmaydigan to'siqlar bilan chegaralangan bo'lishi kerak. Tirlar 25, 50 yoki 100 metr bo'lishi mumkin. Tirda o't ochish kursidan quyidagi ko'chirmalar osib qo'yiladi.


- avtomatdan boshlang'ich mashqni bajarish bo'yicha shartlar va uning xususiyatlari;

- o'q otishni o'tkazishdagi xavfsizlik qoidalari.

Bundan tashqari, tirda maxalliy sharoitlarni xisobga olgan xolda ishlab chiqilgan xavfsizlik qoidalari, o'q otish rahbarining majburiyatlari va kichik

kalibrli vintovkadan otish shartlari ham osib qo'yiladi. O't ochish chizig'i yaxshi ko'rinadigan chiziqlar yoki yozuvlar bilan belgilanadi.

**Otish tiri** (25-50 m).



Taktik tayyorgarlik va fuqarolar ximoyasi bo'yicha mashg'ulotlar uchun shaharcha.

O'quv shaharcha 60 x 10 metr xajmdagi xududga joylashtirilishi mumkin va quyidagilardan tashkil topgan bo'lishi kerak:

1. «Minali maydon» dan o'tish uchun joy;
2. Dushman tanklarini yakson etish uchun tankka qarshi qo'l granatalarini qo'llashni mashq qilish joy;
3. Okoplarni jixozlash, niqoblash va xujumga tayyorgarlik usullarini o'rganish joyi.
4. Havo nishonlari (samalot va vertolot)ni yakson etish uchun o'q-otar qurollaridan foydalanishni mashq qilishi joyi;
5. YAdro quroli portlaganda harakat qoidalarini va shaxsiy ximoya vositalaridan foydalanish; degazatsiya va dezinfeksiya o'tkazishni o'rganish joyi.

Bulardan tashqari agar imkon bo'lsa, taktik tayyorgarlik bo'yicha boshqa o'quv joylari ham jixozlanishi mumkin.


Otish usullari va qoidalarini amaliy o'rganish uchun maydon.

Bu maydonda quyidagi jixozlangan o'quv joylari bo'lishi kerak:

- har xil xolatlardan otishga tayyorgarlik uchun o'quv joyi;
- nishonlarni kuzatish va ungacha bo'lgan masofani aniqlash uchun o'quv joyi;

- nishonga olishni o'rgatish uchun joy;
- parchalanuvchi qo'l granatalarini uloqtirishni o'rganish joyi;
- avtomatni yoyish, yig'ish va o'qdonni o'qlash joyi.

### **Otish qoidalarini va usullarini amaliy o'rganish uchun joy.**



1) devor, 2) 8-mishen, 3) 4-mishen, 4) 6-mishen,, 5) okop, 6) o't ochish marrasi, 7) granatani uloqtirish usullarini o'rganish uchun joy, 8) boshlang'ich xolat, 9) tayanch, 10) mat (taglik), 11) tunka, 12) stolb, 13) avtomatni yoyish, yig'ish va o'qdonlarni o'qlash uchun stollar, 14) mat (taglik), 15) pritsel stanogi, 16) ekran.

### **Soqchi majburiyatlarini amaliy o'rganish joyi.**


O'quv joyi qorovul va soqchining har xil vaziyatlardagi amaliy harakatlarini o'rganish uchun o'quv yurti xovlisida jixozlanadi va quyidagi elementlarni (o'quv joylari) o'z ichiga oladi;

- devor (yog'ochli, g'ishtli yoki sim) bilan o'ralgan qo'riqlanadigan ob'ekt;

- tik turgan xolatda avtomatdan otish uchun joy (okop jangovar nizom talablariga muvofiq jixozlanadi) okop devorlari mustaxkam bo'lishi uchun ichki tarafi g'ishtlar bilan urib chiqiladi va sement qo'yiladi yoki taxta bilan o'raladi.

- qurolni o'qlash va o'qsizlantirish joyi. Qurolni qo'yish va o'qni tutib qoluvchi moslamalar bilan jixozlanadi. Postdan kelgan va postga ketayotgan qorovullar smenasini saflash uchun joy. Bu erda qurolni o'qlash va o'qsizlantirish usullari mashq qilinadi. Qo'riqlanayotgan ob'ektda o't

o‘chirish vositalari o‘t o‘chirish moslama, qum bilan to‘ldirilgan yashik, suvli bochka, chelak va shuningdek, belkurak, bolta va lom bo‘lishi kerak. Ob‘ekt yaqinida postda yong‘in chiqishi va uni o‘chirish qoidalarini o‘rganish uchun joy jixozlanadi. Ob‘ektda soqchi kiyimlarini saqlash uchun joy tayyorlanadi, shuningdek bu erda qorovul boshlig‘i, uning yordamchisi va tarqatuvchini tezda chaqirib olishni ta‘minlovchi aloqa vositasi o‘rnatiladi. Qo‘riqlanayotgan ob‘ekt chegarasidan tashqarisida «taqiqlangan zona» chizig‘i belgilanadi, buning uchun «taqiqlangan zona chegarasi» deb yozilgan taxtacha o‘rnatiladi. Bu erda postga yoki taqiqlangan zonaga notanish shaxs yaqinlashsa yoki unga kirmoqchi bo‘lsa, shuningdek postga yoki soqchiga xujum vaqtidagi soqchi xarakatlari o‘rgatiladi. Bu maqsadlar uchun taqiqlangan zona chizig‘idan tashqarida - № 8 (rost) (taqiqlangan zonaga yaqinlashayotgan kishi), № 6 ko‘krak figurasi taqiqlangan zona ichida (taqiqlangan zona chegarasini kesib o‘tgan buzg‘inchi) qo‘riqlanayotgan ob‘ekt xududida № 8 (postga kirgan buzg‘inchi) shaxslar nishonlari qo‘yiladi.



### Soqchining vazifalarini amaliy o‘rganish uchun joy.

1 - qurolni o‘qlash va o‘qsizlantirish uchun joy; 2 - o‘q tutqich maketi;  
 3 - o‘t o‘chirish vositasi; 4 - qo‘riqlanayotgan ob‘ekt; 5 - to‘siq; 6 - taqiqlangan xudud chegarasi; 7 - 8-mishen; 8 - 6-mishen; 9 - xandaq (okop);  
 10 - post «gribogi»; 11 - «gribok» tomi; 12 - yong‘inni imitatsiya qilish uchun


joy, 13 - mashg'ulotlarni o'tkazish vaqtida o'quvchilarni saflantirish uchun joy.

### **Posbon majburiyatlarini amaliy o'rganish joyi.**

O'quv joyi CHHT xonasiga kirish joyiga yoki boshqa qulay bo'lgan yaqin joyda jixozlanadi. O'quv joyi quydagilarni o'z ichiga oladi:

Xujjatlar burchagi, tumbochka, telefon apparati (maket), o't o'chirish vositasi, posbonning aslaxasi pichoq va qin yog'ochdan yoki plastmassadan tayyorlanadi.

Bu o'quv joyida vzvodga boshliqlar kelgan vaqtdagi trevoga yoki yong'in vaziyatidagi posbon harakatlari o'rganiladi. SHuningdek, o'quv joyida vzvod mulkini qurol - yarog'larni saqlash va boshqa vaziyatlaridagi



posbon harakatlari mashq qilinadi.


### **Vzvod posbonining vazifalarini amaliy tarzda o'rganish uchun maydon.**

1-o't o'chirgich; 2-telefon apparati; 3-rota bo'yicha navbatchi uchun qo'lbog'ich; 4-tumbochka; 5-posbonning joyi; 6-navbatchining xujjatlari yozilgan doska.

Qurolni tozalash va moylashga o'rgatish joyi.

O'quv joyi tirdagi xonalardan biriga jixozlanadi. Agar o'quv yurtida otish joyi bo'lmasa, o'quv joyi laboratoriya xonasida yoki CHHT xonasiga yaqin bo'lgan joyda jixozlanadi. Jixozlangan o'quv joyi quydagilarni o'z

ichiga oladi: maxsus stol, qurolni yig'ish va moylash o'tkaziladi, devorga o'rnatilgan qutida qurolni tozalash va moylash uchun zarur bo'lgan asboblarni qo'yiladi, qurolni tekshirish va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha eslatma, qurol tozalash uchun kerak bo'lgan moy, shuningdek, toza latta bilan to'ldirilgan temir quti. Qurolni tozalash va moylashga o'rgatish bevosita CHHT rahbari rahbarligida olib boriladi.



### **Qurolni tozalash va moylash uchun joy.**

- 1 - stolning qopqogi; 2 - syul; 3 - vetosh uchun quticha;  
4 – moy idishni solish uchun quticha.

### **Gimnastika shaharchasi.**


Gimnastika shaharchasi va to'siqlardan o'tish joyi - o'quvchilarni jismoniy tayyorgarligi «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlarini topshirish uchun mo'ljallangan.

Gimnastika shaharchasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Metall yoki daraxtdan yasalgan va metrlik qurilma;
- Har xil balandlikdagi temir turniklar;
- Har xil balandlikdagi brusyalar;
- Gimnastik qurilmalar.
- Baland va uzoqlikka sakrash joyi;



- 4 - 5 metr uzunlikdagi gimnastika stoli;
- gimnastika devori;
- uzoqligi 100 metrlik, kengligi 2 metr bo'lgan yugurish yo'lakchasi;



Gimnastika shaharchasi (variant).


1 - balandligi 6 metr bo'lgan to'g'ri burchakli metall konstruksiya, unga turli snaryadlar qotiriladi; 2 - og'irliklar bilan mashq o'tkazish uchun predmetlar (giryalar, patron yashiklari); 3 - shtanga bilan mashq qilish uchun yog'och «pomost»lar (2x3); 4 - engashtirilgan doskalar (uzunligi 2,2 m., eni 30 sm.); 5 -oyoq uchun tayanchlari bo'lgan gimnastika skameykalari (balandligi 35 sm); 6 – ko'p.

### **To'siqlardan o'tish joyi.**

To'siqlardan o'tish joyi quyidagilarni o'z ichiga oladi.

- start;
- tezlik olish uchun 20 metr joy;
- xandak;
- qiya taxtali devor;
- buzilgan ko'prik;
- buzilgan zinopoya;
- g'ishtli devor;
- 2 metr kenglikdagi yugurish yo'lakchasi;

To'siqlardan o'tish joyini umumiy uzunligi 100 m bo'lishi kerak.



YAgona to'siqlar qatori.

1 - to'siqlar qatorining boshlanish liniyasi; 2 - tez yugurish uchun uchastka; 3 - chuqurlik (yuzasini eni 2 m; 2,5 m; 3 m; chuqurligi 1 m); 4 - labirint (eni 2 m, bo'yi 1,1 m; yo'lakchalar orasi 0,5 m; yo'lakchalar soni 10 ta); 5 - devor (balandligi 2 m; qalinligi 25 sm); engashgan taxta bilan (taxta uzunligi 3,2 m., eni 25-30 sm); 6 - buzilgan ko'prik (balandligi 2 m). Bu ko'prik 3 ta to'g'ri burchakli 0,2 x 0,2 balkalar bo'laklaridan iborat; birinchisining uzunligi 2 m, ikkinchisi 3,8 m; boshidan 135 gradusli burilishgacha 1 m; uchinchisi 3,8 m; boshidan 135 gradusli burilishgacha 2,8 m; balkalar orasidagi uzilishlar kattaligi 1 m, ikkinchi bo'lak boshida va uchinchi bo'lak boshida va oxirida vertikal narvonlar mavjud bo'ladi; 7 - buzilgan pillapoya (eni 2 m, pog'onalar balandligi 0,8 m, 1,2 m, 1,8 m pog'onalar orasi 1,2 m; oxirgi pog'onada 2,3 m.li pillapoya; 8 - g'isht devor (balandligi 1,1 m, eni 2,6 m, qalinligi 0,4 m); ikkita ko'zi bor: pastkisi 1x0,4 m., ustkisi 0,5x0,6 m., g'isht devor ostida 2,6x3 m.li - maydoncha bor; 9 - quduq (chuqurligi 1,5 m., eni 1 m) va aloqa yo'li (uzunligi 8 m, bir burilish bilan); 10-transheya (chuqurligi 1,5 m); 11-yugurish yo'lakchasi (eni 2 m).

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha quyidagi mavzular ko'rgazmali tashviqot vositalari (stendlar) bilan jixozlanishi kerak:

- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar turlari;
- ular Vatan uchun xizmat qilmoqdalar;
- mardlar qo'riqlaydi Vatanni;
- bizning bitiruvchilarmiz - harbiy bilim yurtlari kursantlari.

Bundan tashqari, «Vatanparvar» gazetasi uchun vitrina jixozlanishi tavsiya etiladi.

Jangovar va mexnat shuxrati muzeyi yoki xonasi (burchagi) tashkil qilish mumkin.

O'quv yurtlarida o'quv-moddiy texnik baza xolati quyidagicha baholanadi.

«A'lo»- agar, o'quv yurtida jixozlangan CHHT xonasi, qurol saqlash xonasi, tir, taktik tayyorgarlik va fuqarolar ximoyasi bo'yicha mashg'ulotlar uchun o'quv maydonchasi saf tayyorgarligi va otish qoidalarini o'rganish uchun o'quv joy, posbon va soqchi majburiyatlarini amaliy o'rganish joyi, o'quv qurollarini tozalash va moylash uchun, amaliy-jismoniy tayyorgarlik uchun gimnastika shaharchasi, yagona to'siqlar majmui, shuningdek, o'quv qurollari bo'lsa va xisobini yuritish belgilangan talablar asosida olib borilsa;

«YAxshi»- agar yuqorida aytib o'tilgan o'quv-moddiy bazasining turdan tashqari barcha elementlari bo'lsa, o'quv qurollarini saqlash va xisobini yuritish belgilangan talablar asosida olib borilsa;

«Qoniqarli» - agar o'quv moddiy bazasining tir va mashg'ulotlar uchun biror bir joyidan tashqari barcha elementlari bo'lsa, o'quv qurollarni saqlash va xisobini yurgizish talab darajasida olib borilsa;

«Qoniqarsiz» - agar o'quv moddiy baza xolati «Qoniqarli» baho qo'yishga imkon bermasa yoki o'quv qurollarini saqlash va xisobini yurgizish belgilangan talabalarni qo'pol buzish bilan olib borilsa.

O'quv yurti o'quv moddiy bazasini rivojlantirish va takomillashtirish perspektiv (5 yil) va yillik rejalar asosida olib boriladi. O'quv moddiy bazasini rivojlantirish va takomillashtirishning perspektiv rejasida quyidagilar ko'rsatiladi:

- o'quv moddiy bazani rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha asosiy tadbirlar;

- kerakli bo'lgan moddiy vosita va mablag'lar;

- bajarish muddati va javobgar shaxs.

Reja o'quv yurti direktori va CHHT rahbari tomonidan imzolanadi. Perspektiv reja o'quv yurti bo'ysunadigan Xalq ta'limi bo'limi tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

O'quv moddiy bazasini rivojlantirish va takomillashtirishning yillik rejasi. O'quv yurtida belgilangan shaklda o'quv yiliga ishlab chiqiladi CHHT rahbari tomonidan imzolandi va uni o'quv yurti direktori tasdiqlaydi.

2. O'qitishning texnik vositalari o'quv yurti o'quv-moddiy bazasini muxim elementlaridan bo'lib, o'qitish jarayonida qo'llaniladigan texnik vosita va jixozlarni nazarda tutadi. CHHT xonasini zamonaviy diaproektor, kinoproektor, televizor, magnitofon, vidio va audio jixozlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Ko'rgazma – pedagogikaning muxim tamoyillaridan bo'lib, unga muvofiq, darsda ko'rilayotgan aniq obrazlar o'quvchilar tomonidan o'rganilayotgan materialni yaxshi o'zlashtirilishiga imkon beradi. Darslarda ko'rgazmali qo'llanmalar va texnik vositalarni qo'llash o'quvchilar diqqatini eshitib qabul qilishdan, ko'rib qabul qilishga o'tkazadi va shuningdek, ularni navbatdagi o'quv materialini eshitish orqali chuqur fikrlab qabul qilishga tayyorlaydi va ularni bilim olish faoliyatini yaxshilaydi. Ko'rgazma, ayniqsa CHHT mashg'ulotlarida alohida o'rin tutadi, chunki uning eng asosiy vazifalaridan biri askarning jang maydonidagi ishonchli harakatlari uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni o'quvchi yoshlarda shakillantirishda yordam beradi.

U yoki bu ko'rgazmali qo'llanmani, o'qitishning texnik vositalarini qo'llashning pedagogik samarasi o'quvchilarning ular bilan faol ishlashlariga bog'liq. Ta'lim berish jarayonida o'quvchilarni murakkabligi jixatdan ularga tushunarli bo'lgan maket, model va ko'rgazmali qo'llanmalarni tayyorlashga jalb qilishi mumkin.

Dasrga ko'rgazmali vositalarni tayyorlash, o'z ichiga faqat zarur bo'lgan vositalar, plakat, maket, o'quv qurollarini tanlash yoki tayyorlash va o'qitishning texnik vositalari sozligini tekshirishnigina emas, balki ko'rgazmali vositalarni qo'llash uslubiyotini ham taxlil qilishni o'z ichiga oladi;

- vositani qo'llash maqsadini belgilash;
- unga ajratilgan vaqtni belgilash;
- ko'rgazmali vositani dars jarayonidagi o'rni va boshqalar.

U yoki bu ko'rgazmali qo'llanmani, o'qitishning texnik vositalarini qo'llashning maqsadga muvofiqligi oxir-oqibatda o'quv vaqtini tejash, darsning foydali tasiri koeffitsentini ko'tarishdan iboratdir.

Agar ko'rgazmali vositalarni qo'llash dars vaqtini tejashga imkon bermasa, ularni noto'g'ri tanlanganini, qo'llanganligi yoki umuman bu darsda keraksiz ekanligidan dalolat beradi.

### **III. BOB. TADQIQOT SINOV NATIJALARI**

#### **3.1. Tajriba va nazorat guruhlarida CHQBT mashg'ulotlarida talabalarning o'zlashtirish va sifat me'yorlarini aniqlash yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqot natijalari va qiyosiy tahlillar.**

CHaqiriqqacha qadar boshlang'ich ta'lim fani va talaba yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasi jarayoni ko'p qirrali, hamda tizimli jarayon bo'lib, u yoshlarning har tomonlama ( axloqiy-ruhiy, mafkuraviy, jisimoiy va harbiy-texnik ) rivojlanishini ta'minlab beruvchi ta'lim-tarbiya jarayonlaridan tarkib topadi.

O'quvchi yoshlarning Respublikamiz Qurolli Kuchlariga tayyorlash tizimida boshqa umumta'lim fanlaribilan bir qatorda, CHQBT mashg'ulotlarining ham o'z o'rnini bor. CHQBT va harbiy vatanparvarlik tarbiyasi jarayonlari bir-biri bilan uzviy bog'langan, yaxlit tushuncha bo'lib, chaqiriluvchi yoshlarni harbiy xizmatga aloqador barcha harbiy-kasbiy malakalarni shakllantirishda, ularning har ikkalalasi ham birdek ahamiyatlidir. Mamlaotimizning har tomonlama ( ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy ) rivojlantirishda, Respublikamiz chegaralarining mustaxkamlanishida Qurolli Kuchlarimizning tutgan o'rnini juda muhim omil sanaladi. CHunki yurtimizdagi tinchlik va barqarorlik, uning rivojlanishini ta'minlovchi vositadir. SHunday ekan ertangi kun vatan ximoyachilarini yuksak darajadagi harbiy texnik, jismoniy va mafkuraviy tayyorgarligi Qurolli Kuchlarimizning ertangi kunini belgilab berishini har-bir pedagog-o'qituvchi, rahbar doimiy ravishda yodda tutishi lozimdir.

O'quvchi yoshlarni harbiy tayyorgarligi ishlari xozirgi kunda amalga oshirilishi lozim bo'lgan muhim masalalardan biri ekan, asosiy e'tiborni yoshlarni tayanch harbiy tayyorgarligiga qaratmog'imiz, mantiqiy jixatdan eng to'g'ri yo'l xisoblanadi. CHunki ularning ertaga qanday inson, yoki mutaxassis bo'lib etishishlari, bugungi kunda biz amalga oshirayotgan ta'lim-

tarbiya jarayoninig qay darajada tashkillanayotgani va olib borilayotganligiga bog'liqdir.

Ushbu bitiruv malakaviy ishim doirasida amalga oshirilgan tadqiqotimizning asosida o'quv muassasalarida CHQBT mashg'ulotlarini tashkil etish va rejalashtirishning uslubiy-pedagogik jihatlarini o'rganish, uni yanada rivojlantirishning samarali yo'llarini izlab topish, yoshlarning CHQBT mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqishlarini oshirish muammosi turadi.

SHu munosabat bilan ilmiy tadqiqot bo'yicha eksperimentlarni amalga oshirish maqsadida **Quva tumanidagi agrasanoat kollejini tanlab**, u erda ta'lim oluvchi yoshlar bilan tajriba guruhlar ( $n_1-25$ ) tashkil etib, maxsus dastur asosida mashg'ulotlarni amalga oshirdik. Amalga oshiriladigan tajriba mashg'ulotlarning uslubiy va sifat natijalarini taqqoslash va tegishli xulosalarga kelish maqsadida ushbu kollej talabalaridan nazorat guruhlarini ham ( $n_2-25$ ) tanladik.

Dasturda nazariy jihatdan – CHQBT fani bo'limlari, ularning mamlakatimiz mudofaasini ta'minlashda, chaqiriluvchi yoshlarni har tomonlama rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyatini belgilab berishga harakat qildik. Jumladan, kollejdagi yoshlarni aynan yosh xususiyatlari bo'yicha bir xil ikki guruhga bo'ldik. Har bir guruh kategoriyasi uchun ularning yosh xususiyatlari, jismoniy imkoniyatlariga mos talablarni qo'yib, tajriba mashg'ulotlarni tashkil etdik.

Ekspremental mashg'ulotlar natidasida tajriba va nazorat guruhlari talabalarining CHQBT va harbiy vatanparvarlik tarbiyasi natijalari bo'yicha tahliliy, o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi, sifat, (1-jadval) statistik va dispersion ko'rsatkichlari (2-jadval) kriteriyalari bo'yicha tahliliy-matematik ko'rsatkichlari qiyoslandi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki mashg'ulotlarni ilmiy jixatdan to'g'ri tashkillash, mashg'ulotlarni zarur deb xisoblanadigan omillarni e'tiborga olgan xolda rejalashtirish, mashg'ulotlar jarayonida o'qitishning texnik vositalari va

o‘quv moddiy bazasidan samarali foydalanish va ta’lim- tarbiya jarayoniga yangi uslubiy tenologiyalarni maqsadga muvofiq tadbiq eta olish uning sifata va samaradorligini ta’minlar ekan.

(1-jadval)

### Talabalarning CHQBT bo‘yicha o‘zlashtirish va sifat ko‘rsatkichi

t/r	Guruhlar	Respondentlar soni	Tajriba boshida		Tajriba oxirida	
			O‘zlashtirish ko‘rsatkichi	Sifat ko‘rsatkichi	O‘zlashtirish ko‘rsatkichi	Sifat ko‘rsatkichi
1	Nazorat guruhi	25	4.02	84	4.08	88
2	Tajriba guruhi	25	4.03	84.4	4.56	92

Tajriba va nazorat guruxlaridagi yuqori samaraga erishish ko‘rsatkichi bo‘yicha quyidagi natijalar qayd qilingan.


(1<sup>a</sup> -jadval)

### Talabalar rivojlanishining o‘rtacha miqdor va sifat darajalari

Erishilgan natija	Nazorat guruxlarida				Tajriba guruxlarida			
	Tajriba boshida		Tajriba oxirida		Tajriba boshida		Tajriba oxirida	
	Miqdori	%	Miqdori	%	Miqdori	%	Miqdori	%
YUqori	7	28	8	32	8	32	14	56
YAxshi	10	40	11	44	12	48	7	28
Qoniqarli	8	32	6	24	5	20	4	16
Jami:	25	100	25	100	25	100	25	100

Jadvaldan ko‘rinadiki talabalarning ekspremental mashg‘ulotlardan so‘ngi xolati yuqori 56%, o‘rta 28% va past 16% ni tashkil etgan, (Talabalarning sifat ko‘rsatkichi darajasining tajribadan oldingi xolati 1- va 1-<sup>a</sup> jadvalda aks ettiridgan) kshriinib turganidek ancha ijobiy natijalar olingan.





YUqoridagi tahlil natijalaridan ko‘rinadiki o‘quv yutida CHQBT mashg‘ulotlarini samaradorligini ta‘minlashda o‘quv-moddiy bazasi, o‘qitishning texnik vositalari, ta‘lim jarayonini innavatsion loyihalar asosida tashkillash bilan bir qatorda, o‘qituvchining o‘z faniga bo‘lgan ijobiy munosabati, izlanuvchanligi o‘zining, ma‘naviy, siyosiy, jangovor-texnik, jismoniy va eng muhimi uslubiy tayyorgarligini takomillashtirib borishi, CHQBT fanining me‘yoriy talablarini chuqur anglab etishi, mashg‘ulotlar uchun mos shakl va uslublarni tanlay olishi, talabalarning xarbiy kasb sirlarini puxtaroq egallashga bo‘lgan qiziqishini va mas‘uliyat xissini oshiradi.

## XULOSA

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida keng ko‘lamli islohatlar jarayoni kechmoqda. Ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan ishlarda bu ayniqsa yaqqol ko‘zga tashlanadi. Zero, mustaqil mamlakatimizning kelajagi ko‘p jihatdan yoshlarimizning bilimi va salohiyatiga bog‘liq. Tabiiyki, biz ularga qanchalik chuqur, puxta ta‘lim bersak, ertangi kunimizdan umidimiz shunchalik katta bo‘ladi.

Prezidentimiz tomonidan “Kadrlar tayyorlash bo‘yicha milliy dastur” imzolanganidan so‘ng, mazkur dasturni bajarish va milliy istiqloq maqsadi va g‘oyalarni ro‘yobga chiqaradigan sog‘lom yosh avlodni voyaga etkazish, ularni Vatanga muhabbat va sadoqat ruxida, kuchli hamda sog‘lom insonlar qilib tarbiyalash maqsadida ulkan vazifalar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz I.A.Karimov aytib o‘tganlaridek, har bir avlod o‘z yurtining tarixini va obro‘yini, o‘zining farzandlik muhabbati va e‘tiqodi, sadoqati va bunyodkorligi, matonati va mardligi bilan barpo etadi.

Mana shu so‘zlar, buyuk maqsadlardan kelib chiqqan holda, bizlar ham o‘z oldimizga asosiy vazifalarni belgilab olishimiz kerak.

Bizning asosiy vazifamiz – mana shu mustaqil Vananni jon- jonidan sevuvchi, uning ravnaqi va ozodligi, xalqi uchun jasoratga, kerak bo‘lsa jonini fido etishga tayyor bo‘lgan, elim deb, yurtim deb, yonib yashaydigan mard o‘g‘lonlarni, o‘zbek vatanparvarlarini tarbiyalab voyaga etkazishdir. Biz bu olijanob maqsadlarga yoshlarning chaqiriqqacha tayyorgarligi va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini to‘g‘ri tashkil etish va uni yuksak saviyalarda o‘tkazish orqali erishishimiz mumkin.

Bugungi kunda ta‘lim tizimida yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, ularning harbiy vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etish bo‘yicha bir qator dolzarb muammolar turibdi.

SHu borada davlatimizning Respublikadagi akademik litsey, o‘rta maxsus va kasb xunar kollejlarda yoshlarni xarbiy xizmatga tayyorlash,

chaqiriqqacha yoshlar tayyorgarligi fanini o‘qitilishini yanada yaxshilash chora tadbirlari to‘g‘risidagi bir qator qarorlari mavjud.

Ushbu qarorlarning asosiy mazmuni yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash va chaqiriqqacha yoshlar tayyorgarligi fanini o‘qitilishini samaradorligini oshirish kabi vazifalardan iborat.

YUqorida aytib o‘tilgan qarorlar va yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashdagi ba’zi bir muammolardan kelib chiqqan holda, biz yuqoridagi ayrim fikrlarni va tavsiyalarni aytib o‘tishni o‘zimizga joiz deb bildik.

Biz umid qilamizki, agar chaqiriqqacha yoshlar tayyorgarligi va harbiy vatanparvarlik tarbiyasining yo‘nalishlari asosida olib borilsa, o‘quv – tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil etishga, uni samarali o‘tkazishga yaqindan yordam beradi va yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash hamda ularning harbiy vatanparvarlik tarbiyasini yanada yuqori saviyalarga ko‘tarishga imkon yaratadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.**

### **I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari.**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonun. 1997 yil 29 avgust.
2. O‘zbekiston Respublikasida “Oliy o‘quv yurtlariga abituriyentlarni test usulida o‘qishga qabul qilish xaqida” gi Qonuni. 1992 yil 5 mart.
3. CHQBT dasturi. Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligining 2010 yil 21 oktyabrdagi 396-buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

### **II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari.**

4. Karimov. I.A. “Barkamol avlod orzusi”. T. SHarq.1999 yil
5. Karimov. I.A. “YUksak malakali kadrlar – taraqqiyot manbai”. T. O‘zbekiston. 1996 yil
6. Karimov I.A. “Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”. T. O‘zbekiston. 1997 yil
7. “Miliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari”. T. 2000. 11-15-sahifa

### **III. Asosiy adabiyotlar.**

8. Natsionalnaya programma po podgotovke kadrov. Garmonichno razvitoe pokolenie - osnova progressa Uzbekistana. - T. SHark. 1997 god
9. Azizxo‘jaeva N. “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat”. T. 2002 yil
10. Farberman B. L. “Ilg‘or pedagogik texnologiyalar”.T. 2002 yil
11. Rasulova L.SH. “YAngi pedagogik texnologiyalar”. Qo‘llanma. Farg‘ona. 2002 yil
12. Yo‘ldashev J. H. “YAngi pedagogik texnologiyalar: yo‘nalishlar, muammolar, echimlar”. Xalq ta’limi jurnali. 1997 yil №4-son.
13. Saidaxmedov N, Umarov S. Xalq ta’limi xodimlari va o‘qituvchilar uchun “YAngi pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti” kursi bo‘yicha sinov o‘quv mavzuviy rejasi. T. 2000 yil

14. Endi G. Kamolov N. “Intensivnie metodi obucheniya”. T. 1997 god
15. Selevko G.K. “Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari”. Xalq ta’limi
16. Azizxo‘jaeva N. “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat”. T. 2002 yil

#### **IV. Qo‘shimcha adabiyotlar.**

17. Farberman B.L. “Progressivnye pedagogicheskie texnologii”. T. 1999 god
18. Selevko G.K. “Sovremennye obrazovatelnye texnologii”. Uchebnoe posobie - M. Narodnoe obrazovanie. 1998 god
19. Klarin M.V. “Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsesse”. M. Znanie. 1989 god
20. Saidaxmedov N, Ochilov M. “YAngi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyixasi”. T. XTB RTM. 1999 yil
21. Azizxo‘jaeva N. “O‘qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi”. T. 2000 yil
22. Babanskiy YU.K. “Izbrannye pedagogicheskie trudy”. – M. 1989 god

## Ilovalar

(1-ilova)

“Tasdiqlayman”  
Politehnika kasb-hunar kolleji  
direktori A.Abbazov  
2016 yil 28-avgust

### YOshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligi, jismoniy tarbiya va tibbiy bilim asoslari bo‘yicha uslubiy kengashning

#### ISH REJASI

t/r	Tadbirlar	Mas‘ul	Bajaril ishi haqida belgilar
1	2	3	4
	Avgust		
1.	Ta‘lim muassasasi metodik birlashmalarining rejalashtirish va fanlararo aloqa masalalari bo‘yicha kengaytirilgan majlis.	Direktor	
2.	Metodik komissiyaning harbiy rahbar, CHQBT, jismoniy tarbiya o‘qituvchilari, shifokor va sinfdan tashqari ishlar tashkilotchisining hamkorligidagi ish vazifalari, shakl va uslublari masalalari bo‘yicha yig‘ilishi.	Ma‘naviyat va ma‘rifat ishlari bo‘yicha dir.o‘rinbo sari	
	Sentyabr		
1	Jismoniy tarbiyadan, saf tayyorgarligi va O‘R QK nizomi bilan o‘zaro bog‘liq ochik mashg‘ulot o‘tkazish.	Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi. CHQBT rahbari	
2.	Guruh va seksiya komandirlari bilan, ularning jismoniy tarbiya va tibbiy bilim asoslari bo‘yicha mashg‘ulot va sinfdan tashqari ishlardagi o‘rni xaqida uslubiy mashgulot.	CHQBT rahbari	
	Oktyabr		
1.	Saf tayyorgarligi bo‘yicha ochik mashgulot: - joydaturib burilishlar, shaxdam bilan qadam yurish.	CHQBT rahbari	

2.	Uslubiy komissiya va guruh (sinf) raxbarlarining «O'quvchilarning individual xususiyatlarini o'rganishning shakl va uslublari» masalasi bo'yicha qo'shma yig'ilishi.	Direktor	
	Noyabr		
1.	Nizomlar va saf tayyorgarligi, jismoniy tarbiya bo'yicha uslubiy ishlanmalarni o'rganish	Uslubiy komissiya	
	Dekabr		
1.	CHQBT, jismoniy tarbiya va tibbiy bilim asoslari bo'yicha mashgulotlarning harbiy vatanparvarlikka yo'naltirilganligini yanada oshirish yullari va usullari mavzusida suhbat	Tashkilotchi	
	Yanvar		
1.	Fuqaro himoyasi bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil qilish va o'tkazish uslubi.	CHQBT rahbari	
	Fevral		
1.	Tuman MIB ga ro'yxatga olish uchun yuborilayotgan yoshlarga tavsifnomalarni birga ko'rib chiqish.	CHQBT rahbari	
	Mart		
1.	YOCHQBT kursi yakunlanishiga bag'ishlangan harbiy sport bayramini o'tkazish buyicha xamkorlikdagi ishlar to'g'risida tibbiy bilim asoslaridan ochiq mashg'ulot.	Uslubiy komissiya raisi	
2.	Tibbiy bilim asoslaridan ochiq mashg'ulot.	SHifokor	
	Aprel		
1.	«YOshlarni O'R QK safida xizmatga tayyorgarligini ahvoli va uni yaxshilash yo'llari» ma'ruza mavzusining muxokamasi.	Uslubiy komissiya raisi	
	May		
1.	YOCHQBT, jismoniy tarbiya va tibbiy bilim asoslari bo'yicha mashg'ulotlarda qatnashish.	Komissiya a'zolari	

Uslubiy komissiya raisi:

I.Misirov.

**“Guruh, seksiya komandirlarini tayinlash to‘g‘risida”  
Toshkent shaxar Politexnika kasb-xunar kolleji bo‘yicha**

**№ 2 - BUYRUQ**

«10» sentyabr 2016 yil.

Kattaqishloq qishlog‘i.

O‘zbekiston Respublikasining o‘smirlarni chaqiriqqacha tayyorlash to‘g‘risida Nizomiga muvofiq chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni, tibbiy bilim asoslari va jismoniy tarbiya bo‘yicha mashg‘ulotlar va sinfdan tashqari tadbirlarni yuqori saviyada tashkillash va o‘tkazish, hamda o‘quvchilarda nizom talablarini bajarish ko‘nikmalarini hosil qilish maqsadida.

**BUYURAMAN**

1. 3-kurslar (11-sinflar) (ta‘limning ikkinchi yili) guruhlarining raqamlanishi avvalgi tartibda qoldirilsin.

2. 2-kurslarni (10-sinflarni): 10 «A» - 1-guruh; 10 «B» - 2-guruh; 10 «V»- 3-guruh deb nomlansin.

3. Guruh komandirlari etib: 1-guruhga o‘quvchi Nosirov Botir; 2-guruhga-Jonboev Maqsud tayinlansin.

4. Har bir guruhda uchadan seksiya tashkil etilsin. Seksiya komandirlari etib: 1-guruhda o‘kuvchilar Mansurov SH., Komilov P., Asqarov A. lar tayinlansin.

2-guruhda o‘quvchilar Ochilov M., Rustamov V., Soliev K. lar tayinlansin.

5. CHQBT rahbari, guruhlarda saf hisobi o‘tkazsin va har bir o‘quvchining safdagi va harbiy xonadagi o‘rnini belgilab bersin.

6. CHQBT rahbari, tibbiy bilim asoslari va jismoniy tarbiya o‘qituvchilari o‘quvchilar safda va harbiy xonada joylashgan vaqtda, ulardan o‘z o‘rnini egallashni, intizomni saqlashni va xushmuomilalikni, shuningdek



kiyim-bosh shakllariga amal qilish va bo'yruqlarni aniq bajarishlarini talab qilsinlar.

7. Guruh va seksiya komandirlari CHQBT rahbariga, tibbiy bilim asoslari va jismoniy tarbiya o'qituvchilariga, mashg'ulotlarda va sinfdan tashqari tadbirlarni o'tkazishda, o'quvchilar o'rtasida intizomni saqlashda, o'quv-moddiy bazani yaratish va takomillashtirishda yordam bersinlar; o'qishda va ijrochilikda namuna bo'lsinlar; o'quv vaqti va sinfdan tashqari tadbirlarni o'tkazish chog'ida o'quvchilarning qaerdaligidan boxabar bo'lsinlar.

8. Guruh va seksiya komandirlari bilan metodik mashg'ulotlarni har oyning oxirgi shanbasida o'tkazilsin.

9. Buyruq barcha o'quvchilarga etkazilsin.

Mazkur buyruqning bajarilishi ustidan nazoratni leytenant Burhonovning zimmasiga yuklatilsin.

Politexnika kasb-xunar kolleji

Direktori:

A.Abbazov

(3- ilova)  
 “Tasdiqlayman”  
 Politexnika kasb-hunar kolleji  
 direktori A.Abbazov  
 2016 yil 28-avgust

**CHQBT rahbarining 2015-2016 o‘quv yili uchun  
 shaxsiy ish rejasi.**

t\r	Tadbir nomi	Sana	O‘t kaz ijo yi
1	2	3	4
	1. Tashkiliy va reja hujjatlarini tayyorlash		
1	CHaqiriqqacha qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanini boshlash haqida Buyruq loyihasini tayyorlash	28.08 gacha	
2	Harbiy vatanparvarlik va sinfdan tashqari ish-larni tashkil etish, o‘quv-moddiy bazani takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish	28.08 gacha	
3	CHQBT, jismoniy tarbiya va tibbiy bilim asoslari bo‘yicha metodik komissiya ish rejasini tuzish	30.08 gacha	
4	Gurux va seksiya koman-dirlarini tayinlash haqida buyruq loyihasini tayyorlash	30.08 gacha	
5	Mudofaa ommaviy ishlar oyligi rejasini tuzish	10.12 gacha	
6	CHQBT kursi tugallanishiga bag‘ishlangan harbiy sport bayramini tayyorlash va o‘tkazish haqida buyruq loyixasini tayyorlash	Aprel	
7	CHQBT kursi tugallanishiga bag‘ishlangan harbiy sport bayramini o‘tkazish rejasini tuzish	Aprel	
8	CHQBT kursi tugallanishi hakida buyruq loyihasini tayyorlash	Iyun	
9	YOCHQBT ahvoli haqida hisobot tuzish	Iyun	
10	2. SHaxsiy tayyorgarlik		
11	YOshlarni O‘z. Res. QK safidagi xizmatga tayyorlash bo‘yicha Prezident, Vazirlar Mahkamasi, Mudofaa vaziri, XTBB, AL va KXX	Doimiy	

	boqarma boshliqlari, tuman mudofaa ishlari bo'limi boshlig'ining farmonlari, buyruq va talablarni o'rganish		
12	O'z. Res. Konstitutsiyasi, «Mudofaa to'g'risida», «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida», «Muqobil xizmat to'g'risida» gi Qonunlarni o'rganish va konspektlashtirish.	30.09 gacha	
13	O'z. Res. Prezidenti, davlatning boshqa rahbarlari asarlarini o'rganish va konspektlashtirish	Doimiy	
14	Temur tuzuklarini o'rganish	Dekabr	
15	3. O'quv-metodik ishlar	Doimiy	
16	O'quv mashg'ulotlari	Reja asosida	
17	O'zlashtira olmagan va dars qoldirgan o'quvchilar bilan qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazish	Mashg'u lotlar oldidan	
18	Mashg'ulotlarga tayyorgarlik	Har kuni	
19	Tuman mudofaa ishlari bo'limi rejasi bo'yicha o'tadigan bir kunlik metodik mashg'ulotlarda qatnashish	Har oyda	
19	Tuman XTB, AL va KKK boqarma boshliqlari metodisti reja bo'yicha o'tadigan bir kunlik metodik yig'inlarda qatnashish	Har oyda	
20	Tuman MIB o'tkazadigan 5 kunlik o'quv-metodik yig'inlarda qatnashish.	Avgust	
21	CHQBT, jismoniy tarbiya va tibbiy bilim asoslari bo'yicha metodik komissiya ishida qatnashish.	Har oyda	
22	Tuman MIB metodik kengashi yakka tartibdagi topshiriklarini bajarish	Reja asosida	
23	4. Vatanparvarlik va sinfdan tashqari ishlar	Reja asosida	
24	Yillik reja asosida tadbirlarni bajarish	Sentyabr -iyun	
25	Ikkinchi jahon urushi katnashchilari, baynalminal jangchilar va H/Q harbiy xizmatchilari bilan uchrashuv o'tkazish	YAnvar	
26	Ommaviy - mudofaa oyligini o'tkazish	Dekabr	
27	Xotira va qadrlash kunini tayyorlash va o'tkazish	May	
28	Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alaba kuniga bag'ishlangan	May	

	jasorat darsini o'tkazish.		
29	Harbiy mavzudagi suhbat va ma'ruzalarni o'tkazishda qatnashish	Sentyabr -iyun	
30	CHQBT mavzusi bo'yicha filmlar namoyishini tashkil etish	Har oyda	
31	CHQBT kursi tugallanishiga bag'ishlangan harbiy sport bayramini o'tkazish	May	
32	Otish to'garagiga rahbarlik	Doimiy	
33	Otish, sportning harbiy-amaliy turlari va fuqaro himoyasi bo'yicha musobaqani tayyorlash va o'tkazishda qatnashish	MIB rejasi bo'yicha	
34	CHaqiruv yoshida bo'lgan o'quvchilarga tavsifnoma yozishda qatnashish	Bitiruv arafasid a	
35	5. O'quv moddiy bazani takomillashtirish bo'yicha ishlar	Reja asosida	
36	Yillik reja asosida o'quv-moddiy baza ob'ektlarini biriktirish	sentyabr -iyun	
37	O'quvchilar seksiyalariga o'quv-moddiy baza ob'ektlarini biriktirish	15.09 gacha	
38	6. Umumta'lim darajasini oshirish	Doimiy	
39	Muzey, teatr va kino-teatrlarda bo'lish	Doimiy	
40	Harbiy mavzudagi teleko'rsatuvlarni ko'rib borish	Doimiy	
42	Harbiy, pedagogik va badiiy adabiyotlarni o'qish	Doimiy	

(4-ilova)

**“Kichik kalibrli vintovkadan otish mashqlarini o‘tkazish to‘g‘risida”**

Politexnika kasb-xunar kolleji bo‘yicha

№ 4 BUYRUQ

“12” fevral 2016 yil.

Kattaqishloq qishlog‘i.

YOshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligini 2015-20136 -  
o‘quv yili uchun tuzilgan haftalik rejasiga muvofiq

**BUYURAMAN:**

1. Harbiy rahbar, CHQBT leytenant I.Burhonov 20136 yilning 25-martida birinchi va ikkinchi gurux o‘quvchilar bilan otish joyida (tir) kichik kalibrli vintovkadan 1-otish mashqini 10.00 dan 13.00 gacha o‘tkazsin.

2. Mashg‘ulotda o‘tkazishda to‘rtta o‘quv joyi tashkil etilsin:

***Birinchi***-kichik kalibrli vintovkadan mashqlarni bajarish joyi

***ikkinchi*** kichik kalibrli miltiq dan otish usul va qoidalarini bajarish joyi;

***uchinchi***-xavfsizlik choralari, mashqlarni bajarish tartibi va qoidalarini o‘rganish joyi;

***to‘rtinchi*** – kichik kalibrli miltiq qismlarini o‘rganish;

Kichik kalibrli miltiqdan birinchi mashqni bajarishga faqat xavfsizlik choralari, otish usul va qoidalarini qat‘iy o‘zlashtirgan va otishga tayyor o‘quvchilargina ko‘yilsin.

Otish usul va qoidalarini egallamagan, xavfsizlik choralari va otish shartlarini qat‘iy bilmagan o‘quvchilar bilan otish to‘garagida qo‘shimcha mashg‘ulotlar tashkil etilsin va bu mashqni bajarish chaqiriqqacha tayyorlash bo‘yicha sinfdan tashqari tadbirlar uchun ajratilgan vaqtga belgilansin.

Mashqni bajarish uchun 077795, 075976 raqamli TOZ – 8 kichik kalibrli miltiqlari va ularga ajratilgan o‘q-dorilardan otish mashq shartlariga muvofiq ravishda foydalanilsin.

Patronlarni ro'yxatdan chiqarish dalolatnomasi 2008 yil 26 – mart kuni soat 16.00 gacha taqdim etilsin. Otish rahbari etib CHQBT rahbari, I.Burhonov tayinlansin. Mashg'ulotlar tibbiy ta'minoti hamshira L.SHukurova zimmasiga yuklatilsin. CHQBT rahbari va hamshira yo'l - yo'riq va ko'rsatmalar olish uchun yil 20 - mart kuni soat 10.00 ga qabulimga kelsinlar.

Mazkur buyruq bajaralishi yuzasidan nazorat CHQBT rahbari I.Burhonov zimmasiga yuklatilsin.

Politexnika kasb-hunar

kolleji direktori:

A.Abbazov

(5-ilova)

**“Uch kunlik o‘quv-dala mashg‘ulotlarlariga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish to‘g‘risida”**

Politexnika kasb-hunar kolleji bo‘yicha

№ 5 BUYRUQ

«2» fevral 2016 yil.

Katta qishloq qishlog‘i.

YOshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligi dasturi, tuman XTB mudirlari va Akademik litsey va kasb-xunar kollejlari boshqarma boshqlarining buyrug‘iga muvofik, CHQBT darslarida egallagan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash, shuningdek, qizlar bilan tibbiy bilim asoslarini mashg‘ulotlarini o‘tkazish maqsadida

**BUYURAMAN:**

1.3-kurs (11-sinf) o‘quvchilari bilan uch kunlik O‘QY ta’lim muassasasi bazasida asosiy darslardan ajratilgan holda 2016 yilning 20-apreldan 24-aprelegacha o‘tkazilsin.

2. Tibbiy bilim asoslari bo‘yicha mashg‘ulotlar tuman (shaxar) poliklinikasining bazasida o‘tkazilsin.

3. Kiyim-bosh shakli: CHQBT rahbari uchun - Dala-o‘quv mashg‘ulotlariga mos kiyim.

4. CHQBT rahbari: leytenant I.Burhonov

- xavfsizlik qoidalari bo‘yicha mashg‘ulotlarni o‘tsin, e‘tiborni otish chog‘ida xavfsizlik choralariga amal qilishga qaratsin; har bir o‘quvchini sinovdan o‘tkazsin;

-uch kunlik dala-o‘kuv mashg‘ulotlari (yig‘inlarini)ni o‘tkazish uchun jadval, mashg‘ulot o‘tish rejalari va o‘kuv-moddiy bazani tayyorlasin;

- xavfsizlik qoidalari, saf tayyorgarligi, va dasturning boshqa bo‘limlari bo‘yicha sinov qaydnomalarini tayyorlasin;

-mashg'ulotlarni o'tkazish uchun tayyorgarlik, moddiy-texnik ta'minot  
bo'yicha menga 2016 yilning 15-aprel kuni axborot berilsin;

sana

5. Gurux (sinf) rahbarlari o'quvchilarning mashg'ulotlarda qatnashishini ta'minlasinlar.

6. Mazkur bo'irug, bajarilishi ustidan nazoratni ta'lim muassasasining CHQBT rahbari leytenant I.Burhonov zimmasiga yuklatilsin.

Politexnika kasb-xunar

kolleji direktori:

A.Abbazov.